

84
7193
Xudoyberdi TO'XTABOYEV

DONISHMAND BOBO ERTAKLARI

1



84	3921
T 93	Y. Töxtaboyev
Donishmand bobo	
ertaklari:	
2019u	9200=

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан кечиктирилмаган ҳолда топширилиши шарт

Илгариги берилмалар микдори _____

--	--

Xudoyberdi TO‘XTABOYEV



DONISHMAND BOBO ERTAKLARI

BIRINCHI QISM

Ikkinchi nashr



7+

*Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2019*

UO'K 821.512.133-343.4(081)

KBK 84(50)6

T 93

To'xtaboyev, Xudoyberdi

T 93 Donishmand bobo ertaklari: [Matn] birinchi qism/
ikkinchi nashr. X. To'xtaboyev. – T.: Cho'lpon
nomidagi NMIU, 2019. 92 b.
ISBN 978-9943-5380-6-1

Ushbu kitobda tarixiy rivoyatlar, qissa va hikoyalar
bugungi zamon tiliga moslab, ertak shaklida talqin etilgan.
Shuningdek, muallif o'zi to'qigan yangi ertaklarni ham ravon
tilda ifodalagan. Ertaklardagi voqealar qisqa, sermazmun
tarzda tasvirlangan.

UO'K 821.512.133-343.4(081)

KBK 84(50)6

© X. To'xtaboyev, 2019

© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019

(Bolalar adabiyoti nashriyoti)

ISBN 978-9943-5380-6-1

3121

Закрета Акел

❧ DARAXTLAR NEGA QURIYDI? ❧

Qadim-qadim zamonda, goh u tomonda, goh bu tomonda ajib-ajib voqealar sodir bo‘lib turar ekan. O‘sha zamonlarda hali giyohlar ham, daraxtlar ham, hayvon-u hasharotlar ham xuddi odamlarga o‘xshab bir-biriga so‘z aytar, fikr bayon qilar, ko‘ngil ham so‘rab turishar ekan. Tartibni, intizomni yaxshi ko‘rganlari uchun oralaridan goh u daraxtni, gohi bu hayvonni o‘zlariga rahbar etib saylab olishar ekan. Qiziq, yong‘oqlarga Yong‘oqbobo, o‘riklarga O‘rik xola, giloslarga Yaxshi ko‘rgan ammam deb nom berishgan ekan. Bir-birlariga juda mehribon ekanlar. Hasharotlar ortiqcha zahar chiqarmas, mevalar kerak bo‘lsa to‘p-to‘p shirin hosil berib turar ekan. Bir kuni Yong‘oqbobo oldiga lorsillab O‘rik xola kelibdi va yig‘lab arzi hol qilibdi.

– Jon bobo, yordam bering, nihollarim, ya‘ni yangi-yangi ko‘karayotgan bolalarim ketma-ket o‘lib qolishayapti. Bir-ikki oy ichida mana ko‘ring, 300 farzandim nobud bo‘ldi. Jon bobo, qutqaring, – deb yolvoribdi.

Yong‘oqbobo uning bolalari suvsizlikdan o‘layotgan bo‘lsa kerak, degan xayolga borib ariqdan

oqayotgan suvning bir qismini bog'ga yo'naltiribdi. Yo'q, nihollarning o'lishi baribir davom etaveribdi. O'rik xola yana yig'lab kelibdi. «Bolalarim o'lyapti!» deb zorlanibdi.

– Nihollaring quvvatsizlikdan, darmonsizlikdan o'lyapti, ularga quvvat, dori-darmon bo'ladigan narsalardan solgin, – debdi Yong'olibdi. Solishibdi. Yo'q, bu ham samarasiz bo'libdi. Nega bunday bo'layotgani jumboqligicha qolaveribdi.

O'sha zamonlarda xuddi bugungiga o'xshab bir-birlarining ovozi anjirlarning bargigami, yong'oqlarning bargigami yozib oladigan ajoyib mitti hayvonchalar ham bor ekan. Ularning ko'pini sichqon, boshqalarini ko'rsichqon, kalamush deb atashar ekan. O'rik xolaning oldiga bir kalamush kelibdi.

– O'rik xola, nabiralaringizning o'limini men manavi anjirning bargiga yozib olganman, – debdida, lip etib ko'zdan g'oyib bo'libdi. O'rik xola anjir bargiga yozilgan sehrli ovozni asta-sekin tinglay boshlabdi. Eshitsa, daraxtning eng tagida turgan tomir baqirayotgan emish.

– Hoy, tana-shoxlar, barglar! Maqtanmang, hammangiz men tufayli yashayapsizlar, pastdan o'g'itni, suvni, quvvatni men olib jo'natyapman. Agar men bo'lmasam, hammangiz allaqachon o'lgan bo'laridingiz, – deb bir silkingan ekan, tomirlar bir qo'zg'alib qo'yibdi.

– Yo'q, – debdi daraxtning tanasi, – sen o'g'itni, suvni yiqqaning bilan men orqali, mening tanam orqali o'tayapti. Agar mening tanam bo'lmaganida

sening o'g'iting ham, suving ham bir pul bo'lar edi. Bu yerda mana men xo'jayin bo'laman! – debdi.

Shunda tepadagi shoxlarning mayda shinchalari – barglar birdan chuvillab qolishibdi.

– Ey tanavoy, hoy tomirvoylar. Hadeb maqtanavermanglar. Agar biz quyoshdan nur, oydan yorug'lik, havodan shirin-shirin nafaslar emib sizlarga jo'natib turmasak, allaqachon nobud bo'lardilaring. Bu yerda xo'jayin biz bo'lamiz, – debdida, ular ham bir silkinibdi.

Endi kalamushning anjir bargiga yozgan xulosasini qarang: «Qayerdagi manmanlik boshlansa, o'sha yerda bir-biriga dushmanlik boshlanadi. O'sha yerda daraxtlar ham, kalamushlar ham, sichqonlar ham, boringki, hamma narsa nobud bo'ladi. Bilib qo'yingki, bu gaplarni yozgan katta kalamush xolangiz bo'laman!». Qissadan hissa shuki, manmanlik boshlangan joyda, ahillik yo'qolgan joyda hamma narsa nobud bo'lar ekan.



❧ QARI BILGANNI PARI BILMAS ❧



loy tog'ining berisida, Qatron tog'ining narisida kengligi, go'zalligi olamga yoyilgan go'zal vodiya jannatmakon bir mamlakat bo'lgan ekan. Bu mamlakat shunday go'zal, shunday boy bo'lgan ekanki, boshqa mamlakatlarning ochofat podshohlari «Bir amallab shu mamlakatni o'zimga bo'ysundirsam, poyoni yo'q yaylovlari, soya-salqin bog'lari, sersuv anhorlari, yer usti, yer ostidagi ko'z ilg'amas boyliklari meniki bo'lsa», – deb orzu qilar ekan. Lekin bu mamlakatning odamlari behad ahil, behad ittifoq, kerak bo'lsa mamlakatni, uning boyliklarini himoya qilish uchun jon fido qiladigan darajada bir tan, bir jon ekan. Bostirib kelgan yovlarni birgalashib qaytarishar ekan. Yengilgan podshohlar alamzadalik bilan «Hali bundan ham kattaroq kuch bilan kelaman!» – deb orqasiga qaytib ketar ekan. Ha, ikki mamlakat o'rtasida, ikki toifa askarlar o'rtasida, ya'ni himoyachilar va bosqinchilar o'rtasida omonsiz janglar ko'p bo'lar ekan.

Ana shunda yengilgan podshohlardan biri qo'shin yig'ishim kerak, deb o'ylar ekan-u, ammo qo'shin yig'ish uchun pul ham, tilla zaxirasi ham yo'q ekan.

Qaytib kela turib, yaqinginada jang bo‘lib o‘tgan bir muzofotga tushibdi. Katta hovuz atrofida baland-baland supalar bor ekan. Supalarning biriga u uchun shohona joylar qilib berishibdi. Shoh g‘amga botib, «Otamdan qolgan eski qilichdan boshqa hech narsam yo‘q, qo‘shinni qanday yig‘aman?» deb o‘yga cho‘mib o‘tirgan ekan, to‘satdan katta hovuz tagida yaltirab yonib turgan tillaga ko‘zi tushibdi. Hovliqibdi, entikibdi va darrov vazirini chaqirib uni ko‘rsatibdi. Vazir ham ko‘rib hayron-u lol qolib: «Ha, shahanshohim, tilla-ku bu. Tillaning eng zo‘ri!» – debdi.

Podshohning suvga sho‘ng‘iydigan maxsus g‘avvos askarlari bor ekan. O‘shalardan ikkitasini tushirib, «Darhol oltinni olib chiqinglar!» – deb amr beribdi. G‘avvoslar bir muddat yo‘q bo‘lib ketishibdi. Nihoyat, hovuz limmo-lim loyqaga to‘libdi. Sho‘ng‘igan ikki g‘avvos navkar qup-quruq chiqib: «Shahanshohim, hech qanday tilla yo‘q ekan», – deyishibdi. Shoh navbatdagi hovuzga sho‘ng‘iydigan shavvozlarga buyruq beribdi. Ular ham ketma-ket sho‘ng‘ib, bir hovuchdan balchiq ushlab chiqishibdi, xolos. Podshoh darg‘azab bo‘lib, o‘yga tolibdi. Shunda bir vazir bu yerda sehr borga o‘xshaydi, deb o‘ylabdi.

– Mamlakatda «sehrgar romchi» deb nom olgan bir kampir bor, shuni olib kelaylik, – debdi shohga. U rozi bo‘libdi. Sehrgarni ham, ketidan boshqa bir necha romchilarni ham olib kelishibdi. Ammo ular ham bu sinoatning tugunini yecha olishmapti.

Hovuzdagi loyqa suv tinishi bilan oltin yana ko'zni kuydirgudek yaraqlab turaverarmish. Shunda yana bir vaziri:

– Shohim, «Bir qarining gapiga kir, bir parining», degan naql bor. Mana, parilarning gapiga kirdik, natija bo'lmadi. Endi qarilarning ham so'zini olaylik, – debdi. Bu fikr shohga ham, boshqalarga ham ma'qul bo'libdi. Podshoh mamlakatning eng qari kishisini keltirishga farmon beribdi. O'shanday qari kishi topilibdi. Ko'chasi oldidagi supachada ikkita nabirasini tizzasiga olib, o'sib ketgan soqolini: «Tarab qo'ysang, yong'oq beraman», – deb bolajonlarga hazilnamo gap qilib o'tirgan ekan. Qariyani podshoh huzuriga keltirishibdi. Bo'lgan voqeani, ya'ni tillaning hovuz suvida yaltirab turganini keksa otaxonga tushuntirib, hovuzga boshlab borishibdi. Mo'ysafid chol o'yg'a tolibdida, birozdan keyin boshini ko'tarib:

– Shahanshohim, bu tillalar hovuzga emas, hov anavi baland o'sgan chinorning juda baland bir joyidan kesilgan joyga qo'yilgan. Ikki barkash tilla bir-biriga rang berib, charaqlab turibdi.

Qiziq voqea, bu yerda janglar boshlanishi oldidan oltinfurush bir zargar to'plagan tillalarimni olib chiqib ketolmayman, deb quyma holatga keltirib, hov o'sha – uncha-buncha odamning aqli yetmaydigan darajada baland chinorning kesilgan shoxiga qo'yib ketgan ekan. Qariyaning gapini eshitgan shahanshoh darhol ikki navkarini chinor ustiga chiqaribdi. Chindan ham, ikki barkash tilla o'sha

yerda ekan. Podsho ham, vazirlar ham xursand bo'lishibdi. Oltin quyuvchilarni topib kelib, tillalarni tangalarga aylantirishibdi. Tilla tangalarga otlar, qilich-qalqonlar sotib olishibdi va navbatdagi jangga tayyorgarlik ko'rishibdi. Shahanshoh mamlakatda qancha chol bo'lsa, hammasiga oq yaktak kiygizing, hammasining ostiga atlas ko'rpachalar to'shang, yonboshiga par yostiqlar qo'ying deb farmon beribdi. O'shandan buyon shu mamlakatning askarlari jangda yengilmas, ko'pni bilgan duoxon bobolari atlas ko'rpachalar ustida parqu bolishlarga yonboshlab yotishar ekan.



❧ FAROSATLI BOLA ❧

Qadim-qadim zamonda yozi sermeva, qishi serqor bo'ladigan bir mamlakatda qulchilik avj olgan ekan. Qullar o'z xohish-ixtiyori bilan yashay olmas, butun borlig'i xojasining ixtiyorida bo'lar ekan. Hatto, ayrim zolim xojalar bo'lar ekanki, ular qulni qanday qilib bo'ysundirib olishini boshqalarga namoyish qilish maqsadida uni oftobga qo'yib, yog'i erib ketgunicha ushlab turarkan. Goho «tuf» desang, tupugi yerga muzlab tushadigan qattiq sovuqda ham qul bechorani yalang'och holatda muzlab qolguniga qadar tashqarida qoldirar emish. O'sha zamonlarda qulchilikka qarshi kurashlar bo'lsa-da, natijasi unchalik ham sezilmas ekan.

Ana shunday kunlarning birida bir mamlakatni yov bosib, katta hujum bo'libdi. Erkaklar qirg'in-barotda o'libdi. Ayollar asir olinibdi. O'sha zamonlarda qul bozorida qullarning narxi yoshiga qarab belgilanar ekan. Ayniqsa, o'smir-yoshlarning, qizlarning narxi baland bo'lar ekan. Bosqinchilar asirga olingan barcha ayollarni qirg'in qilibdi. Saqlanib qolgan o'smirlarni oltita-oltitasini bir arqonga bog'lab, qulchilik bozoriga haydashibdi. Tor

yo'llar changalzorlardan, goh suvsiz sahro-yu, gohi biyobonlardan, goh ilonlar sakrab-sakrab bir-birini yeb yurgan vodiyan o'tar ekan. Ana shunday olti kishi qilib bog'langan o'smirlar orasida ko'zlari chaqnab turgan bir bola ham bor ekan. Ismi Lochin ekan. Lochin hamqishloqlari bilan keta turib bir gapni aytibdi.

– Bilasizlar-ku, men ilgari ham qul bo'lib sotilganman, bir amallab qochib kelganman. Mana yana qo'lga tushdim, qul bo'lib sotilgandan ko'ra, yaxshisi ozodlik yo'lida o'lganimiz yaxshi. Tunda xojalarimiz o'tov tikib, o'tovning ichida sham yoqib, oshiq o'ynashib bir-birlariga tillalarini yoki bizni sotishadi. Xo'p desanglar ana shu o'yinga berilib ketgan paytlari yonimda yashirib qo'ygan pichog'im bilan men arqonlarni kesaman. Keyin birgalashib qochamiz! To sahrodan, yantoqzorlardan, changalzorardan chiqib ketguncha bir kecha-yu bir kunduz yuguramiz. Rozi bo'lsanglar, ishni reja qilardim, – debdi. Shu maslahat bo'lgach uchinchi kun kechasi qul egalari nashani gupillatib chekishib, qimor o'yiniga berilib ketishibdi. Lochin qo'lidagi kichkina xanjar bilan avval hamqishloqlarining qo'lidagi, oyog'idagi arqonlarni kesibdi.

– Endi hammalaring «Yo Alloh, bizga o'zing madad ber!» degan so'zni uch martadan aytasalar, – debdi. Ular uch martadan shu so'zlarni aytib, changalzorlar tomondan noma'lum yurtga qarab qochishibdi. Bir kecha-yu bir kunduz yugurishibdi.

Birovning oyog'iga tikan kirib qonagan, birov yiqilib yelkasi ezilgan, yana biri suvsizlikdan holidan ketib yiqilay-yiqilay degan ahvolga kelishibdi.

Shunda Lochin bobosidan eshitgan gap esiga tushibdi: «Ey o'g'lim, aqling bor, uni ishlatish uchun farosat ham kerak. Allohdan nimani so'rasang, beradi. Faqat har doim aqlingni ishlatib, farosat bilan ish ko'r».

Axiyri qochayotganlar holsizlanib qolib, yarmi qurib, yarmi ko'karib turgan bir to'p yantoq tagiga to'planishibdi. Lochin mana shu yantoqning tubida suv bo'lishi kerak, suv bo'lmasa mana bu yerlar ham allaqachon qurigan bo'lardi debdi. Qo'lidagi xanjar bilan tagini kovlashsa, ularga yetarli olti xo'plam suv borakan. Alloh bu suvni yantoq uchun saqlagan ekan, ularga nasib qilib ichishibdi. Anchayin tetik bo'lishibdi. Allohga shukronalar aytib, yana yo'lga tushishibdi.

Qiziq, bu sahroning yomon bir odati bor ekan, kunduzi jazirama issiqdan badanlari qurib ketar, tunda shunday qattiq sovuq bo'lar ekanki, tirik jonning omon qolishi mo'jiza, hammasi tayoqdek qotgan muzga aylanarkan. Sovuqdan diydiragan bolalar nima qilishlarini bilolmay turishganda yana Lochinning xayoliga bobosidan eshitgan bir gap tushibdi. Bobosi: «Ikki toshni bir-biriga ursang, uchqun chiqadi. Uchqunni yumshoq bir narsaga tutashtirsang, u olovga aylanadi», – degan edi. Shu paytda Lochindagi aql farosati bilan qo'shib, ikki toshni topibdi-da, bir-biriga urishtiribdi. Qurib

qolgan o't-giyohlarga uchqun tushib, alangalabdi. Oltov qochqinlar o'tlar, quruq shoxlar topib kelib isinishibdi. Shu tariqa jonlarini omon saqlab qolishibdi. Erta tongda yana «Yo Alloh, o'zing yo'l ber!» deb yo'lga tushishibdi. Bir necha kun och-nahor, suvsiz yurishibdi.

Ayrimlari holsizlanib hushidan keta boshlabdi. Qolganlari ham bir-biriga suyanib, arang yurib borishardi. To'satdan shovullab oqayotgan daryo bo'yiga borib qolishibdi. Olti qochqindan ikkitaginasini hushida ekan. Lochin ularni yoniga olib, daryodan hovuchlab suv keltirib ichirishibdi. O'zidan ketganlar asta-sekin o'ziga kela boshlabdi. Keyin atrofni kuzatishibdi. Mevali daraxtlar bor ekan, ularning mevasidan olib yeyishibdi. Kuchga kirib, quyon ovlashibdi va uni pishirib yeyishibdi. Keyin kiyik ushlab yeyishibdi. Shu tariqa daryo bo'yida yashay boshlashibdi.

Taqdirni qarangki, qochqinlar uch o'g'il, uch qiz ekan. Alloh ularning ko'ngillariga mehr-muhabbat tuyg'ularini solibdi va ular turmush qurishibdi. Vaqtlar o'tib, navbati bilan har oilada farzandlar dunyoga kela boshlabdi. Ota-onalari ularni ham goh mevalar, gohida esa kiyik go'shti bilan boqib katta qilishibdi.

Ulg'aygan farzandlar ham bir-birlariga mehr-muhabbat qo'yibdi. Otalar, bobolarining ruxsati bilan turmush qurishibdi. Va bora-bora mana shu daryo bo'yida, mana shu so'lim bir maskanda Qulobod degan bir qishloq paydo bo'libdi.

Shunday qilib, bir yosh o'smirning aqli va farosati tufayli qullikda yo'q bo'lib ketishi mumkin bo'lgan yigit-qizlar omon qolishibdi, yangi bir qishloqda tug'ilgan bolalarga bobo, buvi bo'lishibdi.

Qissadan hissa shuki, aql bilan farosat ishlaganda Alloh so'ragan narsangizni berar ekan.



❧ NIHOL EKKAN CHOL ❧

Qadim-qadim zamonda, kunga betgay tomonda yaxshilar omonda-yu yomonlar gumonda bo'lgan bir mamlakat bo'lgan ekan. Bu mamlakatning oppoq-oppoq qorlarga o'ralgan baland-baland tog'lari, qo'y-u mollari yayrab yuradigan poyonsiz adirlari, onda-sonda ekilib, goh qurib, goh ko'karib ketadigan shirin-shirin mevalar beradigan bog'lari ham bo'lgan ekan. Mana shu tog'ning etakroq tomonida bir chol bilan kampir yashar ekan. Kulbalarida bir-ikki qo'y, besh-o'n tovuq boqib, shu bilan tirikchilik qilishar ekan. Cholning po'latdan yasalgan mehnat quroli bor ekan. Uning yordamida toshli yerlarni o'yib, ba'zan besh, ba'zan o'n tup ko'chat ekar ekan.

Keyin eshagiga minib olib, huv uzoqdagi yerlardan xurjunida suv olib kelib, shu nihollar tagiga quyur ekan. Goho eshak yo'q bo'lsa, yelkasidagi xurjunda katta bir ko'zaga suv solib o'zi ko'tarib kelar ekan. Kulbalari katta bir karvon o'tadigan ko'chaga yaqin joyda ekan. Bir kun kampiri ovqatga unab, chol bobo qo'lidagi asbob bilan chaq-chuq qilib yer kavlayotgan ekan, karvonlar o'tadigan bu yo'ldan to'satdan podshoh o'tadigan bo'lib qolibdi.

Hamma uning istiqboliga peshvoz chiqib, qo'lini qovushtirib salom berib turardi. Faqatgina chol o'tgan-ketganga e'tibor bermay, chaq-chuq etib, adirni kavlashda davom etardi. Shohning nazari unga tushibdi va qiziqib:

– Nega hammaning qo'li ko'ksida egilib salomda turibdi-yu, bu chol esa hatto bosh ko'tarib qaramayapti. Qani, otni shu chol tomonga buringlar, – deb buyuribdi.

Shahanshoh cholning tepasiga borsa ham uning parvoyiga kelmay ishlayotgan emish. Salomlashib so'rashibdi. Shundagina chol qo'lidagi asbobini qo'yib, «Kel o'g'lim, kampirim choy damlagan, bir piyola ich, mehmonimiz bo'l. To'rt dona mevam bor, shundan ham nasibangni olib ket», – debdi. Podshoh cholning yerga qo'ygan asbobiga sinchiklab qarabdi.

– Bu qanday asbob? Nega adirni kavlayapsiz? – deb so'radi.

– Bu – mening ish qurolim. Har yili shu atrofga qo'limdan kelgancha nihol qadab, uni parvarish qilaman. Bugun yana to'rt tup yangi nihol olib keldim, shuni ekmoqchi bo'lib joy hozirlayotgandim, – deb javob beribdi.

Shoh kekxa otaxonning shu yoshida mashaqqat bilan bajarayotgan mehnatining mohiyatini baribir anglab yetmapti.

– Bobo, – debdi shoh, – qiziq, yoshingiz to'qsondan oshib qolgan bo'lsa, ekayotgan bu nihol-laringiz qachon o'sadi-yu, qachon mevaga kiradi.

Sizga yeyish nasib qilmasligi ham mumkin-ku, — debdi.

Shunda chol bukchaygan qaddini rostlab:

— To'g'ri aytasan, o'g'lim. Men bu niholarning daraxt bo'lganini ko'rolmasligim, soyasida o'tirolmasligim, mevasidan yeya olmasligim mumkin, ammo nevara-chevaralarim, shu manzildan o'tgan ketgan undan bahramand bo'lishi tayin. Shuning savobiga ekaman, — debdi.

Qariyaning so'zlarini tinglab turgan podshohga uning: «Nevara-chevaralarim yeydi», — degan gapi ma'qul bo'libdi.

— Otaxonga bir tanga oltin beringlar! — deb buyuribdi. Darhol bir tanga oltin berishgan ekan, chol duoga qo'l ko'tarib: «Mana o'g'lim, men ekkan nihollar birinchi hosilini berdi», — debdi. Shunda podshohga bu gap ma'qul kelib yana bir tanga beringlar, deb amr qilibdi. Yana bir tanga berishgan ekan, chol yana duo qilibdi. Podsho xursand bo'lib ketibdi.

— Orzuyingiz bormi? — deb so'rabdi podshoh.

— Bor, — debdi keksa otaxon.

— Ayting, nima niyatingiz bor? — debdi.

— Shuncha yil ovora bo'lib shu dashtga suv chiqara olmadim. O'g'illarim chelaklab olib kelgan suv bilan yashayman. Shu yerga bir kulba yasab bersang, o'g'illarim yonimga kelsa edi. Bir o'g'limda kelinim farzand ko'ray deb turibdi. Nabiralarim shu yerda mendek suvga chanqoq bo'lib yashamasinlar, deb orzu qilaman, — debdi.

3121

Завуева А.К.М.

Shahanshoh ham kelinidan nabira kutayotgan ekan. Nabira degan so'z shohning qulog'iga yoqimli eshitilib, ko'ngli yorishib ketibdi va «Mana shu dashtga daryodan ariq chiqaringlar, dasht yayrab bog'ga aylanmaguncha shu suvdan xabar olib turadigan miroblar tayinlanglar!» deb buyruq beribdi.

Shoh kekxa otaxon bilan iliq xayrlashib, saroyiga qaytibdi. Tez orada o'nlab anhorlar ochilibdi. Bu yerga suvga muhtoj qishloq kishilari yopirilib kelibdi. Adirlarda bog'lar yaratishibdi, bu bog'lar hosilga kiribdi. Qizaloqlar bu bog'larning mevalarini terib, ko'cha bo'yiga chiqib sotib ham o'tirishar ekan. Shunday qilib, bir tup niholning hosiyati, cholning bir og'iz shirin so'zi va ezgu niyati butun bir adirni gurkiratib, bog'-u rog'larga aylanishiga sabab bo'libdi.

Demak, har bir kishi yaxshi niyat qilishi va uning niyati boshqalarga yaxshilik keltirish kerak, deb o'ylashi darkor ekan.



❧ XO'ROZ NEGA QICHQIRADI? ❧

Qadim-qadim zamonda kunga betgay tomonda yaxshilar omonda-yu yomonlar gumonda bo'lgan bir mahallar aholisi bir-biriga ahil, bir-biriga mehrlil, bir-biriga muhabbatli bo'lib turgan mamlakat asta-sekin xarobazorga aylana boshlabdi. Odamlari uyquchi emish, kecha-yu kunduzi uxlay-verisharmish. Erkaklari qimorboz-u xotinlari kiyim tanlash bilan ovora emish. Hatto, bolalari ham uyquchi bo'lib o'sa boshlabdi. Hech birlari erta bilan kechning farqiga borishmas emish. Xullas, bu mamlakatning odamlari ishdan uzoqroq-u uyquga, g'iybatga yaqinroq bo'la boshlashgan ekan. Hatto, shunday uyqisirab yurishar ekanki, o'zining yeri qayerda qolib, birovning yerida ishlayotganini bilmas emish.

E, boringki, qo'ylari oza boshlabdi, sigirlari sutni kamroq bera boshlabdi. Lekin bu mamlakatda esli-hushli, ko'p narsaga aqli yetadigan odamlar ham bor ekan. Ana shu odamlar: «Ey yaratgan Egam, bandalaring vaqtning o'lchovini unutib qo'ydi, erta bilan kechning farqiga bormay qolishdi. Ey Alloh, bir amallab bu bandalaringni o'ziga keltir. Vaqtini o'lchab, vaqtga tushunib yashaydigan bo'lish-

sin», deya yolvorib so'rashibdi. Shunda Alloh: «Xo'sh, bandalarimga qanday yordam bersam ular eng aziz ne'mat – umrning qadriga yetishar ekan, deb o'ylabdi. Hayvonlarni ishga solsam-chi yoki dov-u daraxtlarimni ishga solaymikan? Yo'q-yo'q, yaxshisi, xo'rozlarimga vaqt o'lchovini beray. Ular g'aflatda qolgan, uyquga botgan bandalarimni uyg'otadigan bo'lishsin», – debdi. Shunday qilib, Yaratgan Egam bandalariga yordam berish uchun xo'rozni tanlabdi. «Ey xo'rozlar, endi bandalarimni uyg'otishni sizlarga topshiraman», – debdi. Shunday qilib, xo'rozlar zimmasiga bandalar-u hayvonlar-u hatto, giyohlarni ham uyg'otish vazifasi yuklatilibdi. Ana shundan keyin dunyoda qancha xo'roz bo'lsa, hammasi quyosh o'zini ko'rsatmay turib, tong ham otmay turib bir qichqirishga tushibdiki... Yana tag'in ular goho-goho daraxtlar ustiga, baland-baland tepaliklarga ham chiqib qichqirisharmish.

– Quv-quv!

– Quv-quv!

– Quv-quv!

– Ey Allohning bandalari, uxlamang! Mana biz uyg'oq, siz ham uyg'oning! – deb qichqirishar ekan. Qiziq, bu ovozlar odamlarga xuddi Allohning o'zidan kelayotgandek yoqimli tuyularmish. Insonlarning ko'ngliga yorug'lik sizib kirgandek bo'larmish. G'aflatga botgan mamlakat odamlari barvaqt uyg'onadigan, o'z ishini ertaroq boshlaydigan, bir-birlariga rahmatlar aytadigan, kuningiz xayrli bo'lsin degan yoqimli tilaklarni tilashadigan bo'lishibdi.

Dehqon ketmonini olib dalaga yuguribdi, qo'y-u mol-lar o'rnidan turib oxuridagi hashaklarni yeyishga tushibdi.

Shunday qilib, bir mahal xarobaga aylangan mamlakat yana obod bo'libdi. Odamlar tag'in bir-birlariga ahil, mehri, oqibatli bo'libdi. Chunki tong paytida Allohning ovozi hammaning qulog'iga borib yetar ekan. Ana shu ovozlari bandalarini bamisoli Alloh bilan gaplashayotgandek qilib ko'rsatar ekan.

Demak, dunyoni g'aflatdan xo'rozlar qutqargan ekan.



❧ SABZILAR TILGA KIRIB, PIYOZLAR YIG'LAGANI ❧

Roviylarning rivoyatiga qaraganda, qadim-qadim zamonlarda ham, siz bilan biz yashab turgan kunlarda ham g'alati-g'alati voqealar bo'lib turar ekan.

Bu voqealarning poyoniga goh yetib, goh yetolmay «Ey, tavba», deb yoqa ushlab yurganlar ham ko'p bo'lar ekan. Ana shunday sehrii kunlarning birida tepasi tim bilan yopilgan, qator qo'yilgan rastalarda g'alati-g'alati voqealar bo'layotgan emish. Sabzilar o'rnidan turib, goh u yoqqa, goh bu yoqqa yugurarmish. Piyozlar yig'lab, kimgadir arzini aytayotgan emish.

– Yolg'on!

– Aldov!

– Chayqovchi! – degan so'zlar hammayoqni qoplab borayotgan emish. Hatto, shu rastaga qo'yilgan kartoshkalar ham «Yolg'on sotayptilar», «Dehqonni aldayptilar! Bizning yuzimiz qaro bo'lyapti!» degan gaplarni aytib, qopdan chiqqancha hovli tomonga qarab yugurib borayotgan emish. Bir mahal katta oshqovoq bir yigitni bosib: «Yolg'onchi! Yolg'onchi! Besh so'mga olgan eding, o'n so'mga sotayapsan!» degan gaplarni aytayotgan

emish. Bir to'p sabzilar yig'ilib, og'zi to'la tilla tishi bor ayolga qarab: «Kilosini bir so'mdan olgan eding, nega besh so'mdan oldim deb yolg'on gapirayapsan?» – deb uning badaniga nayza bo'lib sanchilib-sanchilib qolayotgan emish. Butun olamni «Insofsiz! Yolg'onchi! Qasamxo'r!» degan gaplar bosib ketayotgan emish. Qiziq, shu tim ostida qancha meva, qancha sabzavot sotilayotgan bo'lsa, hammasi birdan:

– Qasamxo'r!

– Yolg'onchi! – degan so'zlarni aytarmish. Boshqa bir chekkada bir uyum sabzavotlar:

– Dehqonlar bizni mehnat bilan silab-silab, o'g'itlar berib yaxshi niyatlar bilan yetishtirgan edi. Keyin bizni yolg'onchilar qo'liga tashlab ketdi. Ketamiz! Ketamiz! – deyaotgan emish.

Shunday qilib katta tim ostida g'ala-g'ovur boshlanib ketibdi. Eh-he, dahshat emish! Olibsotar ayollar qayerga qochishni bilmas emish. Tarozibonlar tarozining ostida berkinish uchun joy axtarishayotgan emish.

Elliktacha militsioner ellikta hushtakni chalib, «Jim bo'ling! Bas qiling!» deyishayotgan emish. Bozor rasi oltita yordamchisini olib darhol yetib kelibdi. O'n martalab «Tinchlaning! Bas qiling!» debdi.

Yordamchilaridan biri:

– Bu yerda biz bilmaydigan sehrli voqea bo'layotganga o'xshaydi, – debdi. Darhol sehrga kuchi yetadigan bir kampirni boshlab kelishibdi.

Kampir duolarini o'qib tugatmasidan butun bozor-dagi mahsulotlar «Sehrgar! Yo'qol!» degan so'z-larni birgalashib aytishayotgan emish.

Bozor raisi:

– Agar ahvol shu holatda davom etib savdo to'xtaydigan bo'lsa, men qizimning to'yiga italyan mebelini olmoqchi edim, qayerdan pul topama-an! – deb kap-katta odam yig'lab yuboribdi. Shunda bir aqlli yordamchisi:

– Masjidning imomini chaqirib kelaylik, azon aytsin, azonning tarkibida Allohning ovozi bor, deyishadi-ku, – degan gapni aytibdi. Imomni, unga qo'shib azon aytuvchi muazzinni ham taklif qili-shibdi. Yo'q, shunda ham:

– Yolg'on!

– Qallob! – degan so'zlar takrorlanaveribdi, takrorlanaveribdi.

Yo tavba, uch kun deganda shu katta timlar ostida hech narsa, hech kim qolmabdi. Ship-shiydon bo'libdi.

Bozor raisining olti yordamchisi, hushtak chalib odamlardan pul undirib yurgan militsionerlar ham ko'p ovora bo'lishibdi. Hech kim bu timlar ostiga kirmabdi.

Qaysidir bozorda sabzi, piyoz, qovun, tarvuz, olma, noklar juda yaxshi sotilayapti, degan gaplar tarqalibdi. Bozor raisi ko'p unabdi, bir oy unabdi, ikki oy, boringki, bir yilgacha bozordagi «Yolg'on! Qallob!» degan so'zlarning muhri devorlarga yopi-shib qolgan ekan.

Ularni o'chira olmapti, savdo bo'lmapti. Borabora u bozor mahallaning axlatxonasiga aylanibdi. Hozir katta bozorning o'rnida katta axlatxona bor emish.

Shu-shu qayerda yolg'on, qayerda aldov avj olsa, o'sha joyda axlatxona paydo bo'laverar emish.

Demak, qadim-qadim zamonlarda ham yolg'onchilik, aldov avj olgan paytda nafaqat bozor joylar, balki butun-butun yurtlar ham xarob bo'lgan ekan-da.



❧ XIYONATCHINI BO'RI YERKAN ❧

Qadim-qadim zamonda kunchiqar tomonda baland-baland yuksalgan tog'lar yonidagi adirlarda yaxshi odamlar ham, yomon odamlar ham istiqomat qilar ekan. Yaxshilardan yaxshilik kelib, yaxshilik yanada ko'payar ekan. Yomonlardan goho-goho yomonlik ham kelar ekan. Hayriyatki, o'sha zamonlarda yaxshilik ko'payib, yomonlik ozayib ham borar ekan. Baland-baland cho'qqilardagi oppoq qorlarni ko'z-ko'zlab turgan tog'larning yonidagi adirlar yonida xilvatgina bir qishloq bor ekan. Mevalardan quritib bozorlarga chiqarib sotar ekan. Ayollari oziq-ovqat tayyorlashar ekan. Erkaklari dalada mashg'ul bo'lar ekan. Mana shu – bor-yo'g'i o'ttiz uydan iborat bo'lgan qishloqchada ikkita tengqur o'rtoq yashar ekan. Mol-u qo'y boqishar ekan, daladan, bog'lardan quruq mevalar terib kelishar ekan.

Ikkovlari o'tirib:

– Kel o'rtoq, xo'p ishladik. Mana, o'g'il-qizlarimiz voyaga yetdi. Endi mana shu angishvonadek kichkina qishloqda yashamay, dunyoni ko'rib kelaylik, armonimiz qolmasin, – deyishibdi. Bu fikr ikkovlariga ham ma'qul bo'libdi. Xurjunga limmo-

lim oziq-ovqatni solishib, hayo-hu deb safarga otlanishibdi. Bir yurtga borib ko'zalar, kosalar, langanlar qanday tayyorlanayotganini ko'rib, zavqlanishibdi. Yana bir yurtga borib, ingichka arqon ustida yerdan 50 metr balandda bir yigitcha qo'lidagi ikki quloch kaltakni ushlab shu arqonning ustida yugurib borayotganini ko'rishibdi. Yana bir yurtga borishsa, katta-katta do'konlarda dunyoga sig'mas matolar sotilayotganini ko'rishibdi. Nihoyat, yura-yura endi orqaga qaytaylik deyishibdi. Qaytaturib nogohon yo'llari sahroyi biyobonga to'g'ri kelib qolibdi. Yaxshi yo'l bilmaganlaridan goh o'ngga, goh chapga qarab yurishibdi. Axiyri holdan toyib, charchab, bir to'p bo'lib o'sgan yulg'in tagida dam olmoqchi bo'lishibdi. Shunda ularning biri astasekin darmonsizlikdan, quvvatsizlikdan o'zidan keta boshlabdi.

Sherigi hali hushyor, oyog'ida kuchi, belida quvvati bor ekan. «Bu yerda baribir ochlikdan, suvsizlikdan o'ladiganga o'xshaymiz. Ikki kishi o'lgandan bir kishi o'lgani yaxshi emasmi?! – deb sherigining xurjunidagi ozgina noni, sanochida ortib qolgan ozgina suvni olib yo'lga tushibdi. Tezroq uyimga yetay degan niyatda bo'lsa kerak, shoshilib-shoshilib yuribdi. Quvvati ham bor ekan, kuchi ham bor ekan.

Shu payt yulg'in ostida behush yotgan odamning sal narisidan tuya haydab karvon o'ta boshlabdi. Tuya minib ketayotgan bir yigitning ko'zi nogohon unga tushib qichqiribdi:

– Xojam, yulg'in ostida bir kishi yotganga o'xshaydi, – debdi. Borishsa, haqiqatan ham bir pahlavondek yigit behush yotgan emish. Suv berishibdi, oyoq-qo'lini uqalashibdi. Yigit o'ziga kelib, «Ey, ha, rosa ko'p uxlaganga o'xshayman», – debdi. Va yonidagi bo'shab qolgan xurjunini olib karvonga qo'shibdi. Karvon boshlig'i holsiz bo'lgan yigitni tuyaga mindirib yo'lga tushibdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. Bir mahal karvonni boshlab borayotgan yigit:

– Xojam, anavi to'p o'sgan yulg'in ostida odam suyagi borga o'xshaydi. Yonida kichkina-kichkina xurjunchalar, suv solinadigan sanochlar bor, – deb xabar beribdi. Darhol borib qarashsa, bir odamning qo'l suyaklari, bosh suyaklari, oyoq suyaklari rosa g'ajilgan emish. Yonida ikkita xurjun, suv solib yuriladigan ikkita sanoch ham bor emish. Karvonga qo'shilgan yigit nima gap ekan deb kelib qarabdi-yu, boshidan hushi uchibdi.

– Voy dod, axir bu mening do'stim-ku! Voy dod, mana bu xurjun, mana bu sanoch meniki ediku, – deb dod-faryod chekibdi. – Yo'q, yo'q, men do'stimning suyagini bu yerda qoldirib ketmayman, – debdi. – Ruxsat beringlar, qabr qazib uni yerga ko'may, – deb yig'labdi.

Karvonboshi va boshqalar kengashib ruxsat berishibdi. Hammalari bir bo'lib unga ko'maklashishibdi. Yigit cho'kka tushib do'stining haqiga duo qilibdi.

– Ey do‘stim, joying jannatda bo‘lsin, – deb ko‘zlariga yosh olibdi.

Karvon yana yo‘lga tushibdi. Ko‘pni ko‘rgan karvonboshi:

– «Yolg‘iz yurganni bo‘ri yeydi», degan gap bor, buni hech birimiz unutmaylik, – debdi.

Shunday qilib xiyonatchining qabri sahroyi biyobonda qarovsiz qolib ketibdi.



❧ BUVISIGA SHIFO AXTARGAN YIGIT ❧

Qadim-qadim zamonda ajal degan bir ofat yopirilib kelib, xoh yaxshidir, xoh yomondir, qaridir, yoshdir demasdan barchaning jonini olib ketar ekan. Odamlar buni goho vabo der ekan, goho «Allohdan kelgan bir jazo» deb qo‘yishar ekan. Bu baloyi ofat bir oilaga ham yetib kelibdi. To‘satdan kelgan dard hech kimga shafqat qilmabdi. Avval oila boshi – ota o‘libdi, sal kundan keyin ona ham olamdan o‘tibdi. Olti yashar bolakay javdiragancha buvisining qaramog‘ida qolibdi.

Buvisi mehribon ekan. Nabirasini bag‘riga bosibdi, oq yuvib, oq tarabdi. Shirin-shirin taomlar pishirib berib, ko‘nglini o‘ksitmay voyaga yetkaza boshlabdi. Onaning mehri buviga o‘tgan ekan, shu boisdan ham buvidan kelayotgan mehr shovullab kelayotgan emish. Bola hech narsaga zoriqmabdi.

Shu zaylda yillar o‘tibdi. Bola o‘smir bo‘libdi, yigit bo‘libdi. Yigit bo‘lganda ham pahlavondek yigit bo‘libdi. Kunlarning birida buvisi kasallanib, yotib qolibdi. «Ey Xudo, men mana shu o‘g‘ilnamni uylantirsam, xonadonimizda yor-yor ovozi eshit-sam, kelinimning qo‘lidan bir piyola choy ichsam, kelinim to‘shab bergan atlas ko‘rpachada hordiq

chiqarsam, deb orzu qilgan edim», – deb ko‘ziga yosh olibdi. «O‘g‘lim, bolajonim, men orzumga yetolmay ketadiganga o‘xshayman», – deb o‘ksib-o‘ksib yig‘labdi.

Yigit darhol buvisining yoniga cho‘kka tushib qo‘llaridan ushlab yuzlariga surtibdi.

– Buvijon, xudo xohlasa, siz hali ko‘p yashaysiz. To‘ylaringa o‘zingiz bosh bo‘lasiz. Hovlimizda yor-yor ovozi taraladi. Kelinning qo‘lidan qaynoq-qaynoq choy ichasiz, ikkimiz ham xizimatingizda bo‘lib, duoyingizni olamiz, – debdi va ikki qo‘lini samoga ko‘tarib: – Ey Allohim, buvijonimning jonini olmay tur. Buvim orzusiga yetguncha menga kuch ber! G‘ayrat ber! Umid ber! – deb nola qilibdi.

Shunda uydan, hovlilardan, ko‘chalardan, «Ey bandam, niyating yaxshi ekan. Buvingni davola. Dardiga shifo axtar. Dard borki, albatta, shifosi ham bor», degan ovozlari kela boshlabdi.

Yigit o‘rnidan turibdi-da, shu yurtning tabiblari oldiga boribdi. «Buvimni saqlang», – deb uning ahvolini tushuntiribdi.

– Xudo xohlasa, ko‘p yil yashaydi, – debdi bir tabib uning qo‘liga dori tutqazib.

Yigit shoshgancha uyga qaytibdi. Dori ichirib buvisiga g‘amxo‘rlik qilibdi. Yo‘q, u shunda ham nimjon, shunda ham ojiz emish. Yigit boshqa choralarni axtarishga kirishibdi. Uzoq yurtda bir kampir bor ekan. Kampir yetmish yoshida tog‘ga chiqib shifobaxsh dori olib kelgan ekan. O‘sha dorining xosiyati bilan mana shu kampir yuzdan

oshib yashayapti, degan gaplarni eshitibdi. Yigit darhol o'sha kampirning huzuriga boribdi. Undan shifobaxsh dori haqida so'rabdi.

– Ey o'g'lim, – debdi kampir, – u yurtga ko'plar shifobaxsh giyoh olib kelaman deb ketib o'lib ketgan. Suyagini bo'rilar g'ajigan. U giyoh yetti qavatli tog'ning ustida o'sadi. Bor-yo'g'i oshqovoqning bargidek keladigan bir yaproq zumda paydo bo'lib, zumda yo'q bo'ladi. Shijoat bilan uzib olishga erishish kerak. Yetti qirrali tog' ustiga chiqquncha qanchasi nobud bo'lgan. Qo'y bolam, u yerga borishni orzu qilma, – debdi.

– Yo'q, – debdi yigit. – Buvijonim meni ko'tarib katta qildi. Uning yagona orzusini amalga oshirolmasam o'zimni kechira olmayman. Yetti qavatli tog' ekan, yetmish qavatli tog' bo'lsa ham boraman. O'sha shifobaxsh giyohni, albatta, topaman. Xudo xohlasa, o'sha giyohni keltirib, buvijonimni davolayman, – deb belini mahkam bog'lab, safarga o'tlanibdi. Cho'llardan o'tibdi, daryolardan o'tibdi, changalzorlardan oyoqlari qonab-qonab yurib boribdi. Har gal «Ey Alloh, menga kuch ber, buvimni orzusiga yetkazay!» degan ezgu niyatlarni aytar ekan. Niho-yat, bir kuni yetti qoyali baland tog'ning qarshisiga yetib kelibdi. Chindan ham, tog' qirralari bamisoli xanjardek o'tkir ekan. Xuddi hovlilar oldiga quriladigan ayvondek yopirilib birining ustidan biri quyoshni to'sib turgan ekan.

– Qanday bo'lsa ham chiqishim kerak! – deb maqsadidan, ahdidan qaytmabdi. Shunday deb bir

qirrani aylanib o'tibdi, kuchi yetibdi. Ikkinchi qoyani aylanib o'tibdi, kuchi yetibdi. Uchinchi qoyani aylanayotgan paytda kuchi ketib, yerga yiqilibdi. Shunda qiziq bir voqeaning guvohi bo'libdi. Shu qoyalarga uzoq-uzoqdan uchib keladigan qushlar uya qurib, bola ochgan ekan. Goh onalari, goh otalari tumshug'ida don tishlab kelib, bolalariga yedirib ketar ekan. Yigit tomosha qilib, ularni havas bilan kuzatarkan. Ana shu qoyadagi bir kavakda uchta chug'urchuq qushcha polapon tumshug'ini chiqarib chiyillarmish, onalaridan darak yo'qmish. Keyin «paq» etib yerga tushib ketibdi. Polapon sekin o'rmalab, uyasiga chiqayotgan emish. Yetay deganda oyog'i nimjonlik qilib, dumalab ketarmish. Yana Allohdan kuch so'rab o'rmalab uyasiga talpinarmish. Nihoyat, to'rtinchi gal uyasiga chiqibdi. Onalari ovqat olib kelib yediribdi. Bu holatdan o'zicha hikmat uqqan yigit sapchib o'rnidan turibdi. Shu polapon to'rt marta tushib, to'rt marta urindi, lekin onasini ko'rish uchun tirishib-tirmashib chiqdi. «Axir, men insonman-ku, undan ko'proq imkoniyatlarim bor-ku. Nega endi buvimning orzusi uchun yettinchi qoyaga chiqishga harakat qilmas ekanman», – debdi-da, shoshilib o'rnidan turib, yettinchi qoyani aylanib o'tishga harakat qilibdi. Qarang, niyati ezgu va pok bo'lgani uchun Tangri kuch berar ekan-da. Yettinchi qoyaning tepasida katta bir maydon bor ekan. Maydon oppoq muz bilan qoplanib yotgan emish. Odam bolasining oyog'i yerda turadigan darajada emish. Yigit emaklab muz


maydon o'rtasiga boribdi. Qiziq, shu yerdan qovoqning bargidek katta bir gul ochilib chiqarmish-da, bir nafas turib yana yo'q bo'larmish. Bu mo'jizadan hayron bo'lib zavqlanib biroz kuzatibdi. Keyin gulning ochilishini kutib turib uning bir pallasini yulib olibdi. Birozdan keyin gul yana yerdan otilib chiqibdi. Yigit tezlik bilan harakat qilib uning yana bir pallasini olibdi. Xullas, yigit muz qoyalar orasida sovuqdan muzlab qolsa-da, shijoatini so'ndirmabdi. Yaproqlardan kichkina xurjunchasini to'ldirib olib pastga tushibdi. Qarang, xurjunchasidagi yaproqlardan kuch kelayaptimi, Allohdan madad kelayaptimi, qadamlari tezlashib, yetti kunlik yo'lni yetmish soatda bosib o'tibdi. Maslahat bergan kampirning huzuriga borib endi buni qanday ishlataman deb so'rabdi. Kampir yigitni bag'riga bosib, duo qilibdi.

– Allohning o'zi senga yo'l beribdi. Yaxshi niyat-lilarga Alloh hamisha yo'l beradi, o'zi madad beradi, – deb yuz-ko'zlaridan o'pibdi. Yigit kelib, qishloqdagi barcha tabobatdan xabari bor ayollarni yig'ib, olib kelgan giyohidan malham tayyorlash-larini so'rabdi. Hammalari jamuljam bo'lib malham tayyorlashibdi. Kampir har kuni ana shu ichimlikdan bir cho'michdan icha boshlabdi. Asta-sekin o'ziga kelib, quvvatga kiribdi. Hovliga chiqib: «Ey Alloh, shu nabiramni berganingga shukur», – deb ko'zlariga yosh olibdi. Kampirning qarindoshlari yig'ilib kelib uning yagona niyati – kelin tushirish maslahatini qilishibdi. Yigitning mo'ljallab yurgan, lekin haddi sig'ib aytolmay yurgan yoqtirgan bir

qizi bor ekan. Qiziq, yigit bilan qiz bir-birini ko‘rar ekan-u, uzoqdan turib yana orqalariga qaytib ketishar ekan. Ularning ko‘ngillarida go‘zal bir gul – muhabbat guli ochilayotgan ekan. Sovchilar ishga tushibdi, qiz tomondan rozilik bo‘libdi. Kampir xursand bo‘lganidan ostonamning ostida yettida karnay-surnay chalasanlar deb bir tilla beribdi. Karnaychilar karnaylarini yetti mahallaga yetgudek qilib chalishar emish. Uning ovozidan quvonch, shodlik ohanglari yangrayotgan emish. Kelin birinchi kuniyoq buvijonisining orzusini ro‘yobga chiqaribdi. O‘rindig‘iga atlas ko‘rpachalar solib, yonboshiga parqu bolishlar qo‘yib: «Buvijonim, choy iching», – deb nazokat bilan piyolada choy uzatibdi. Kampir xursand bo‘lib: «Iloho qo‘sha qaringlar, bolalarim!» – deb ko‘pdan-ko‘p duo qilibdi. Barchalari birgalikda uzoq umr ko‘rib, shod-u xurramlikda hayot kechirishibdi.



❧ O'G'RINI FOSH QILGAN PODSHOH ❧

 o'zal-go'zal tog'lar ortida sharqirab oqadigan soylar, shirin-shirin meva beradigan bog'lar ko'p bo'larkan. Yerlari unumdor ekan, boboquyosh erta-yu kech bu bog'larga mo'l-ko'l nurlar to'kib turar ekan. Asta-sekin bu mamlakat ham xarobaga aylana boshlabdi. Yurtda o'g'ri ko'payib ketibdi. Rostdan ko'ra yolg'on, ig'vo ko'paya boshlabdi. Ana shu mamlakatni odil podshoh boshqarar ekan.

U mamlakatda yuz berayotgan bu holatdan tashvishga tushibdi. Vazirlari orqali tekshiruvlar o'tkazar ekan, poyloqchilar jo'natib, goho-goho o'g'rilarni ushlarkan. Qiziq, mamlakat xarob bo'lgani sari, o'g'rilar ko'paygani sari mingboshilar, qozi-yu kalonlar ham poraxo'rga aylanib, bir-birini talab, bir-birini qaqshatayotgan emish.

Bu qozi-yu kalonlar, mingboshilar boshlariga katta sallani o'rab, o'z xalqini o'zlari talayotgan emish. Podshoh o'ylab-o'ylab, to'xtab tur, debdi. Bir vazirimga ishondim, o'ngidan kelmadi. Ikkinchisiga ishondim, o'ngidan kelmadi. Qani, yurtning ahvolini o'zim bir sinab ko'ray-chi, debdi. Shahardan chiqib chekka bir ovloq joyga borib, otini bir xaroba

hovliga bog'labdi. O'zi eski, juldur-juldur kiyimlarni kiyib, oyog'iga eski chori ham kiyib, yelkasiga qirq yamog'i bor to'nni tashlab shahar aylanmoqchi bo'libdi. Qorong'i kecha ekan, ko'chadan o'tib borayotsa, bir xarob uydan shivir-shivir ovoz eshutilibdi. Quloq solib tursa, o'g'rilar ekan.

Qani, ularga yaqinroq borib men ham o'zimni o'g'ri deb tanitay-chi, nima bo'lar ekan deb o'ylabdi podshoh.

– «Assalomu alaykum, yaxshilar», deb salom bergan ekan, o'g'rilar vahimaga tushib, hammalari yonidagi xanjarini sug'irib unga niqtashibdi.

– Axir, men sizlarga yaxshilar deb murojaat qildim-ku, niyatim yomon emas. Nega qo'pollik qilasizlar? – debdi o'zini go'yo qo'rqayotgandek tutib, ovozlarni qaltiratib. – Yo'limdan adashdim. Biron narsa topay deb ko'chaga chiqqan edim, xotanim kasal, besh bolam och o'tiribdi. Yoqay desam bir qarich o'tin yo'q, ichay desam bir ko'za suv yo'q, debdi-da, yig'lagannamo bo'lib ularning yoniga cho'kka tushib olibdi.

– Tur o'rningdan, – debdi o'g'ri boshi. – Erkak kishining cho'kka tushganini yomon ko'raman. Pahlavongina yigit ekansan, qo'lingda qanday hunaring bor? – deb so'rabdi.

– Menmi? Men... haligi... – podshoh shoshib qolibdi. – Haligi... Yetti paxsa devordan bir sakrashda o'ta olaman, – debdi.

– Yana qanday hunaring bor, – so'rabdi o'g'riboshi.

– To'rt kishi bilan kurashsam, to'rtovini ham yiqitaman, – deb mushtini ko'rsatibdi gado qiyofasidagi podshoh.

O'g'riboshi va boshqalar unga qiziqib qolishibdi.

– Biz bir yurtga boryapmiz, devordan bizni o'tkazib qo'yasan unda. Bu senga sinov bo'ladi, – deb miyig'ida beo'xshov kulib qo'yibdi o'g'riboshi.

Ish oson ko'chganidan podshohning ko'ngli yorishib ketibdi.

– Jonim bilan, – debdi itoatkorona.

Shoh o'z saroyining xilvatroq joyini o'g'rilardan ko'ra yaxshiroq bilarkan. Ularni o'sha yerga boshlab borib, uch o'g'rini bir nafasda ichkariga olib kiribdi. Pisinib nariroq yurishibdi. Qarashsa, xazinaning darvozasi qulf ekan. Xazinani poylab yotgan, qo'liga nayza ushlagan soqchilar parvoyi falak hur-hur uxlab yotishgan emish. Qiziq, o'g'riboshining qo'lida xazinaning qulfiga tushadigan kalit ham bor emish. Apil-tapil kirib xazinadan oladiganlarini olib xurjunlariga joylashibdi.

O'g'rilar xazinani tunab chiqsalar ham qo'riqchilar qilt etmay uxlab yotishgan emish. Podshoh ularni kelgan yo'llaridan hech bir xavotirsiz oson olib chiqibdi.

– Ol, manavi senga, – deb unga to'rt dona kumush tanga uzatibdi o'g'riboshi. – Bu senga bir oyga yetadi. Agar og'zingdan biron noo'rin gap chiqib gullab qo'ygudek bo'lsang, bilib qo'y, seni o'lim kutadi! – deb tahdid ham qilib, uni qo'rqitishibdi.

– Xo‘p-xo‘p, ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin. Meni ko‘p pullar bilan siyladingiz, qiyin ahvolimda menga yordam berdingiz, rahmat, – deb tavoze bilan xayrlashibdi. Shoshilib ko‘chaga chiqib tezlikdan shahar chekkasidagi xarobaga yetib boribdi. Kiyimlarini almashtirib, bog‘lab ketgan otini minib, saroyga qaytib kelibdi. Kelsa, hamma yerda vahima, hamma yerda mish-mish, hamma yoqda yig‘i-sig‘i emish. Nima emish, podshohning xazinasini o‘nta qilich taqqan bosqinchi bosib, qo‘riqchi va darvozabonlarning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, xazinaning qulfini buzib o‘marib ketishibdi. Mana, o‘sha buzilgan qulflar, deb saroy xizmatchilari odamlarga ko‘rsatib yurgan emish. Podshoh riyodan, safsatadan azbaroyi jahli chiqib, shahd bilan saroyga kiribdi-da, o‘zining maxsus soqchilarini yig‘ibdi. Ularga zudlik bilan o‘g‘rilarni tutib kelishini topshirib buyruq beribdi. O‘g‘rilarning izini yo‘qotmay darrov ushlab kelishibdi. So‘roq qilishni adolatli vazirlaridan biriga topshiribdi. Vazir so‘roqni boshlabdi.

– Sening kasbing nima? Qanday hunaring bor? O‘g‘rimisan, kasbing, hunaring bo‘lmasa qanday kun kechirasan, oilangni qanday boqasan? – deb so‘rabdi o‘g‘rilarning biridan.

– Iye, nimalar deyapsiz. Men dehqonman, yer chopaman, ekin qilaman. Mana, ishonmasangiz ketmonimni ko‘ring, – deb shum niyatda ko‘tarib kelgan ketmonini ko‘rsatib uni ishontirishga urinibdi. Vazir ikkinchi o‘g‘rini chaqiribdi.

– Sen-chi, sen qanday kun ko'rasan? Nima ish qilasan? – deb so'rabdi. U o'rnidan turib ayyorona salom berib, ko'zlarini o'ynatib, barcha savollariga yolg'on-yolg'on javoblar beribdi.

– Ey vazir janoblari, men masjid imomiman, mana boshimda salla, qo'limda tasbeh, – debdi. Vazir so'zsiz ishonishga majbur bo'libdi. Uchin-chisini savolga tutgan ekan:

– Men bozorda suvchiman, mana suv tashiydigan sanochim, – debdi. Boshqasi: «Men bozorda o'tinchiman, mana o'tin tashiydigan arqonim», – debdi. Podshoh bu gaplarni chetdan kuzatib turgan ekan, darrov ularning uyiga maxsus nazoratchi vakillarini jo'natibdi. Ular barcha o'g'irlangan narsalarni olib keltirishibdi. G'aflat bosib yotgan qo'riqchilarni zindonband etibdi. Xazinabonni va shunga aloqador bo'lgan hammani qamoqqa olib, zindonga tashlabdi. Shunda podshoh: «O'z mulkingni o'zing qo'riqlamasang, seni hech kim qo'riqlamaydi», – debdi o'ziga o'zi. Yurtda asta-sekin o'g'rilar, yolg'onchilar, qalloblar kamayibdi. Ularning bir xili tovba qilibdi, bir xili jazo olibdi, mamlakatda yana tinchlik, omonlik, ma'murchilik boshlanibdi. Shundan har kishi o'z mulkini o'zi qo'riqlashi kerak degan gap qolgan ekan.



CHAQIMCHI-YU G'YBATCHINI YER YUTAR EKAN

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bir obod mamlakatda qiziq-qiziq voqealar bo‘lib turgan ekan. Bu mamlakat shirin-shakar mevalarga boy, sharqirab oqadigan sersuv soylari ko‘p, yashnab o‘sadigan giyohlarga limmo-lim to‘la yaylovlari ham bor ekan. Odamlari ahil, muruvvatli, bir-biriga mehri, muhabbatli ekan. Bir-biriga ozroq yordam bermasa, goho kechasi uxlay ham olishmas ekan. Xullas, gurkirab o‘sayotgan bir mamlakatni boshqa bir ochko‘z, baxil podshoh bosib olmoqchi bo‘libdi. Qo‘shin tortib boribdi. Lekin ahil mamlakatning alpqomat yigitlari hamjihat ekan. Qo‘llariga qilich-u yelkalariga nayza osib, g‘addor yovning askarlarini quvib chiqaribdi. Ammo ochko‘z podshoh «Bu yerni o‘zimmiki qilib olmasam, boshqa bir podshoh egallab olishi mumkin», deb o‘ylab vazirlariga maslahat solibdi.

– Bir yalmog‘iz kampir bor deb eshitgan edim, – debdi vazirlaridan biri. – Sehrgarlikda unga teng keladigani yo‘q. Chaqimchilik, g‘iybatchilik degan ikkita quroli bor ekan. Qilichdan o‘tkir, nayzadan kuchli ekan bu qurollari. Shundan foydalarsak, qanday bo‘lar ekan.

Bu fikr podshohga ma'qul bo'libdi. G'iybatchi, chaqimchi kampirni huzuriga boshlab keli-shibdi.

– Shartim bor, – debdi kampir ham ayyorlik qilib. – Men so'ragan boylikni bersang, istagan mamlakatingni senga bo'ysundirib beraman, – debdi.

Podshoh rozi bo'libdi. Jodugar kampir hayyohu deb yo'lga tushibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Nihoyat, obod, ahil mamlakatning bir chekkasiga kelib tushibdi.

U yerda bolalar mollarini yaylovga haydab, o'zlari turli o'yinlar bilan mashg'ul ekanlar. Yugurishmi, sakrashmi, bekinmashoqmi, hamma o'yinni bilishar ekan.

– Voy, bolalarim, – debdi o'zini bechorahol ko'rsatib kampir. – Sizlarning o'yinlaringizni kuzatib biram havasim keldi. Anavi Oqtosh mahallasi bor-ku, o'sha yerning bolalari birining ko'zi g'ilay, biri dadasining cho'ntagidan pul o'g'irlyaydi, egriqo'l, degan gaplarni aytib sizlarni g'iybat qilyapti. Bittasi singlisiga olib qo'ygan qaymoqni yalab qo'yadi, degan gaplarni aytsa bo'ladimi?! Sizlarni ko'rib bu gaplar yolg'on deb o'yladim.

Uning gapidan hammalari sarosimaga tushib qolishibdi.

Kampir ularning ko'ngliga adovat urug'ini sepganidan xursand bo'lib, darhol narigi mahal-lada o'ynayotgan bolalarga ro'para bo'libdi. Bu yerning bolalari ham har xil o'yinlar bilan mashg'ul ekan. Yalmog'iz kampir bir dumalab

chiroyli bir ayol qiyofasiga kiribdi-da, bolalar tomon boribdi.

– Voy xudoyim, qanday chiroyli bolalarni ko‘rdim-a, sizlarni yaxshi, ahil deb eshitgandim. Chindanam shunday ekan. Lekin sizlarning birga o‘ynashlaringni, ota-onalaringga yordam berishlaringni ko‘rolmaydigan bolalar ham bor ekan-a, – debdi birdan xomush tortib. Narigi mahalla bolalariga aytgan gaplarga o‘xshash, ba‘zan undan ham qo‘polroq bo‘xtonlarni yog‘diribdi. Shu payt kutilmaganda ikkala mahallaning bolalari:

– Sen yolg‘onchi!

– Sen tuhmatchi! – degan gaplarni o‘rtaga qo‘yib, mushtlashib ketishibdi. Yalmog‘iz bir dumalab keksa bir onaxon qiyofasiga kiribdi-da, mahallaning ellikboshisi huzuriga kirib:

– Voy otaxon, sizni ko‘rolmaydigan odamlar bor ekan, siz aholidan ko‘p-ko‘p soliq olayotgan emishsiz, – degan gaplarga o‘xshash gaplarni aytib ellikboshining qalbiga yomon bir vahimani joylab ketibdi. Narigi mahallaning oqsoqoliga ro‘paro‘ bo‘lib:

– Voy qanday pokiza insonsiz, rang-ro‘yingizdan nur yog‘ilib turibdi. Narigi mahallaning raisi g‘irt tuhmatchi ekan, ularning suvini o‘g‘irlab ichayotgan emishsizlar. Birov to‘y qilmoqchi bo‘lsa, siz to‘ychining yarim mahsulotini olib qo‘yayotgan emishsiz. Siz mahalla ahli bilan emas, ot o‘g‘rilari bilan ahil emishsiz... – degan kurakda turmaydigan gaplarni aytibdi. «Yolg‘on bo‘lsa, til tortmay o‘lay», deb

qasam ham ichibdi. Bir hafta o'tar-o'tmas ikki mahallaning raisi o'zining haq ekanligini isbotlash uchun bahslashishga kirishibdi. Bahs bora-bora janjalga, mushtlashishga aylanib ketibdi. Mahallalarda qancha fuqaro bo'lsa, hammalari qo'liga qurol olib chiqishibdi.

O'sha zamonning tabiblari chaqimchilikka, g'iybatga qarshi dori ishlab chiqisholmagan ekan. O'sha zamondagi kasalliklarning virus ekanligini ham bilishmas ekan. G'iybat, chaqimchilik virusga aylanibdi-da, butun mamlakatni tuhmatga to'ldirib yuboribdi.

Chaqimchi kampir yana bir dumalab go'zal bir qiyofaga kiribdi-da, ochko'z podshohning huzuriga g'olibona kirib kelibdi.

– Shahanshohim, – debdi qo'llarini ko'ksiga qo'yib. – Mamlakatni taslim bo'lish holatiga olib keldim. Ana endi qo'shin tortsangiz, bemalol yengasiz, – debdi. Haqiqatan ham ochko'z podshoh bir oy o'tar-o'tmas obod mamlakatni bosib olibdi. Qo'shin tortib borganda o'sha mamlakatning zabardast yigitlari himoyaga chiqish o'rniga bir-biri bilan mushtlashayotgan emish. Ochko'z podshoh mamlakatni bemalol bo'ysundirib qaytibdi. Keyin o'ylay boshlabdi:

– Bu yalmog'iz kampir keyinchalik mening ustimdan ham chaqimchilik, g'iybatchilikni boshlab, mening mamlakatimni ham sotishi mumkin, deb o'ylab qolibdi. Shu payt yalmog'iz kampir: «Va'da qilgan boyligingni ber», – deb janjal ko'-

taribdi. Podshoh darrov o'zini qo'lga olibdi va debdi:

– Otamdan, bobomdan qolgan tillalarni o'ttiz metr chuqurlikka ko'mganman, o'shalarni beraman senga. Lekin o'zing kavlab olasan, – debdi. Tillalarning daragini eshitib kampir quvonib ketibdi, vujudidagi bor kuchni safarbar qilib chuqurni kavlay boshlabdi. Yigirma metrcha qaziganda: «Boylik ko'rinmayapti-ku», degan ovoz kelibdi pastdan.

– Yana ozroq qazish kerak, – deb javob berishibdi unga mulozimlar. Chuqurlik 21 metrga yetganda podshoh chuqur boshiga borib «O'zi kavlagan tuproqni o'zining boshiga tashlanglar», deya farmon beribdi. Kampirning dod-faryodini hech kim eshitmabdi. O'z boshiga o'zi yetibdi.

Sal kun o'tar-o'tmas «Chaqimchi, g'iybatchi kampirni yer yutibdi», degan gap butun mamlakatga ovoza bo'lib tarqalib ketibdi. Shundan keyin chaqimchilik, g'iybatchilik asta-sekin yurtdan ko'tarila boshlabdi.

Demak, «chaqimchini yer yutadi», degan hikmat o'sha zamonlardan qolgan ekan.



❧ BUVIJONINING QOSHIGA O'SMA QO'YGAN QIZALOQ ❧



Obod mahallaning obod ko'chasida obod bir hovli ham bor ekan. Ana shu obod hovlida Robiyaxon degan chaqqongina, ziyrakkina, aqligina bir qizcha ham yashar ekan. U buvijonining tizzasida katta bo'lgan ekan. Buvijoni uning chiroyli sochlarini tarab qo'yar, turli xil ertaklar ham so'zlab berar ekan. Bir gal «Yoriltosh» ertagini ham aytib bergan ekan. O'sha kitobchadagi qiz qattiq toshni yorib chiqqanda Robiyaxon «Voy xudoyim-e», deb hayqirib ham yuborgan ekan. Ertaklarni bola qalbi bilan ishonib tinglar ekan-da.

Kunlar ketidan kunlar, oylar ketidan oylar, yillar o'tib Robiya qiz maktabga boradigan yoshga yetibdi.

Shu paytda kutilmaganda keksa buvijonisining ko'zi ojiz bo'lib, hech narsani ko'rmay qolibdi. Dorilar surishibdi, kampirlarga rom ochtirishibdi, irim-sirimlar o'tkazishibdi. Yo'q, hech birining foydasi bo'lmabdi.

– Ey xudoyim, iloho buvijonimning ko'ziga shifo bergin, – deb kecha-yu kunduz Tangriga murojaat qilar, duolarida tinmay yolvorib so'rar ekan. Yo'q, ko'zi ochilmabdi.

Ana shunday alamli kunlarning birida Robiya dugonasi Hafizaxonlarnikida televizor tomosha qilib o'tirsa, bir ayol shifokor o'sma haqida foydali maslahatlarni aytib qolibdi. O'smaning suvini siqib mahalladagi ko'zi ojizlarning qoshiga surtdim, shifo bo'ldi degan gapidan Robiya qiz to'lqinlanib ketibdi. Shartta o'rnidan sakrab turib: «Men ham o'sma ekaman», – deb shoshib chiqib ketibdi.

Shu ko'chada hamisha qulog'iga sirg'a taqib yuradigan bir kekxa buvijon bor ekan. Robiya qiz undan maslahat olmoqchi bo'libdi.

– Xolajon, men o'sma ekmoqchiman, unib chiqsa, bargini siqib, suvidan buvijonimning qoshiga surtmoqchiman, – debdi. – Buvijonimning ko'zlari ko'rmaydigan bo'lib qoldi, men davolamoqchiman, – debdi xomush tortib. – O'sma ekishni menga o'rgatasizmi? – deb so'rabdi.

Kekxa onaxon o'sma ekish uchun avval urug' kerakligini aytibdi. Urug'ni qo'shnidan ham olishi mumkinlini aytib, tayinlabdi. Robiyaxon o'sha qo'shninikiga kirib urug' so'rabdi. Oqila ayol ekan: «O'smani nima qilmoqchisan?», – deb qiziqib so'rabdi u ham.

– Suvidan buvijonimning qoshiga qo'yib ko'zini ochaman.

– Ochaman?!

– Ochaman! – deb sakrar emish. Oqila ayol Robiyaxonga bir hovuch o'sma urug'ini beribdi va uni qanday ekish, qanday parvarish qilish kerakligini ham tushuntiribdi.

Robiyaxon hovuchidagi o'smani bag'riga bos-gancha uyga shoshibdi. Darrov bir parcha yerni yumshatib, urug'ni sepibdi.

Robiyaxon har kuni qo'shni ayolning yoniga chiqib behalovat bo'lar, o'smam qachon o'sadi deb tinmay savolga tutar ekan.

– Endi nima qilay? – deb so'rar emish.

– Suv purkagichda sug'orgin, – dermish ayol. Oradan ko'p ham o'tmay urug'lar maysaga aylanibdi.

– Endi-chi? – deb yana so'rarmish Robiyaxon hayajonlanib.

– Endi chumchuq cho'qib ketmasin deb ustiga shoxcha tashlab qo'ygin, – dermish qo'shni ayol. Robiyaxon ertasiga yana kirarmish.

– Endi nima qilay? – deb qayta-qayta so'rarmish.

– Endi tezroq o'ssin deb tagiga o'g'it solgin, – dermish oqila ayol. Robiyaning nazarida vaqt juda sekin o'tar, o'smalari o'smayotgandek tuyulaverarmish. Kuta-kuta o'smalar bargga aylanganini ham payqamay qolibdi. O'zida yo'q xursand bo'lib qo'shninikiga chopibdi.

– Endi-chi, endi nima qilay? – deb so'rabdi entikib.

– Endi o'smaning katta barglaridan terib soya-salqin joyda biroz saqlagin. So'ng piyolani to'nkarib, orqasiga o'smaning suvini siqib chiqargin va shu bilan buvijoningni davolagin, – deb kulib qo'yibdi qo'shni ayol.

Xursand bo'lib ketgan Robiyaxon o'smalarning bargidan olib, bir emas, uchta piyolaning orqasiga o'sma suvidan chiqaribdi. Ana shu paytda hamma gapdan xabardor bo'lib turgan buvijonisi har xil savollar berarmish:

– Bolam, nimalar qilyapsan? Nega shoshasan buncha? – dermish.

– Ko'zingizni ochishga osmondan – Allohdan shifo kelayapti, – dermish Robiyaxon.

– Endi nima qilasan, – deb so'rasa:

– Endi xudo xohlasa, ko'zingizni ochaman, – dermish qiz sevinib.

– Ko'zingizni ochaman?!

– Ochaman! Ochaman! – deb Allohga murojaat qilarmish. Nihoyat, o'smaning suvini qo'yadigan kun ham kelibdi. Robiya qiz gugurt cho'piga yumshoq paxta o'rab buvijonisining qoshlariga surtibdi. Surtayotganda ham buvijonisi, ham Robiyaxonning o'zi shodlanib ketisharmish. Nazarida, o'smaning suvi osmondan – Robbimning jannatidan kelayotgandek bo'lib tuyularmish.

Yetti kun deganda buvijonisi to'satdan:

– Robiy! Robiya qizim! Men seni ko'ryapman! Ko'zim ochilib ketganga o'xshaydi, – deb qichqirib yuboribdi. Uydan Robiyaning onasi, ikkita singlisi birin-ketin otilib chiqishibdi. Buvijoni ularni ham darrov tanibdi.

– Ko'zim ochildi! Ko'zim ochildi! Xudoga shukr! – degan gaplarni aytarmish.

Bir-ikki kun ichida bu obod uyda bo'lgan voqea butun mahallaga tarqalib ketibdi. Buning siri nimada desa, bir donishmand bobo o'sha o'smaning suvida Robiyaning mehri bor edi, mehrlil kishilar Allohndan shifo so'rasa, Alloh albatta beradi, degan gapni aytibdi.

Ana o'shandan buyon mana shu obod mahallada o'sma urug'ini so'ragan qizaloqlar ham ko'payib ketibdi.



❧ QAROVSIZ OTA ❧

Qarovsiz, e'tiborsiz qolgan ota-onalar qadim-qadim zamonlarda ham juda ko'p bo'lgan ekan. Otalar, onalar bolalariga baxt-u iqbol so'rab o'g'il-qizlarini katta qilarkan-u, o'g'illar, qizlar goho ota-onaning mehrini unutib ham yuborishar ekan. Ana shundaylar siz bilan men yashab turgan kunlarda ham bor ekan. Yo'q, bu g'alati voqeani men ataylab ichimdan chiqarayotganim yo'q, odamlardan eshitganimni yozayapman. Shunday qilib, bir obod mahallada bir noobod hovlida bir-biriga mehrlı, muruvvatlı chol-u kampir yashar ekan. Yashagan kunlarini eslab, quvonchlı kunları ko'p bo'lgani uchun bir-birlarını maqtab ham qo'yishar ekan. Kampirini tumov tutib qolsa, chol issiq-issiq choy damlab berar ekan. Cholining beli og'rib qolsa, kampir qo'shni xoladan kepak so'rab chiqib, qizdirib, cholginasining beliga bosar ekan. Uch o'g'il katta qilishgan ekan. Uchovlari ham o'sib-ulg'ayib, yaxshiyaxshi ishlarning boshini tutishibdi. Qarang, biri amaldor, biri tadbirkor, uchinchisi yana bir sohaning katta boshlig'i ekan. Lekin ishimiz ko'p deb ota-onalaridan xabar olishmas ekan. Akasi ukasiga qarab:

– Ota-onamdan xabar ol, mening vaqtim yo‘q, – derkan.

Yana bitta o‘g‘li:

– Sen ota-onamdan xabar ol, hamma yaxshilikni senga qilgan, – deb qo‘yar ekan. Uchinchi o‘g‘il:

– Ha, senlar maza qilib yuraverasan-u, men ahmoq bo‘libmanmi ularning axlatini tozalagan, – der ekan. Goho-goho chol-u kampirlarga dori-darmonmi, biron zarurat bo‘lsa mahalla yordamga kelib turar ekan. Mahalla ahli jonkuyar, mehribon odamlar ekan.

Bir kuni chol-u kampir maslahatlashib, uchov o‘g‘ilni ham bir vaqtga mehmonga taklif qilibdi. Ular vaqti yo‘qligini aytib bahona qilishsa ham, otalari qat‘iy talab qilibdi. Axiyri, hammalari yig‘ilib kelishibdi. Mehribon ona yoshlik yillarini eslab, sergo‘shtgina palov damlabdi. Bolalar ham yoshligini, birga katta bo‘lgan davrini eslab oshni maqtab-maqtab yebdilar. Fotiha o‘qilgach, ota ixchamgina bezaklar bilan bezalgan bir qutichani olib chiqibdi.

– O‘g‘illarim, onang bilan men qarib qoldik. Bir oyog‘imiz yerda, bir oyog‘imiz go‘rda bo‘lib qolgan. Tug‘ilish bor ekan, o‘lim ham bor. O‘lim qachon kelishini bandasi bilmas ekan. Agar men olamdan o‘tsam, mana shu sandiqda oltmish yil davomida yig‘gan boyligim bor, kampir ikkovimiz yig‘ganmiz. Ahillik bilan menga ko‘p, senga oz demay bo‘lib olinglar, deb tilovat qilib, fotiha o‘qibdi.

Qiziq, ertasigayoq o‘g‘illarida g‘alati harakatlar boshlanib ketibdi. Katta o‘g‘li uyni ta‘mirlashga

tushibdi. Keyingi o'g'li ustalar olib kelib hovliga kafel tera boshlabdi. Uchinchi o'g'il ikki kishiik sanatoriyaga yo'llanma ko'tarib kelibdi.

– Otajon! Onajon! Bir sihatgohda dam olib kelinglar, – debdi mehr bilan.

Ha, qazo kuni chindanam yaqinlashib qolgan ekan. Ota olamdan o'tibdi. El-yurt yig'ilib «Joylari jannatda bo'lsin!» deb duolar qilishibdi. Keksa otaxon haqida mahalla ahli yaxshi gaplar aytishibdi. Yaxshi xotiralar eslanibdi.

Ta'ziya marosimlari o'tgach, ko'pni ko'rgan, aqlli, dono, bir so'zli, kezi kelganda cho'rtkesar mahalla raisi ishtirokida sandiqni ochishibdi. Uch o'g'lon uchovi ham «Menga nima tegar ekan?» deb shay bo'lib turishar ekan. Sandiq ochilishi bilan uchovlari ham tarrakdek qotib qolishibdi. Sandiqning ichida katta bir tayoq va xatjild ichida nimadir yozilgan bir parcha qog'oz bor ekan. Hayron-u lol bo'lib uni ochib o'qishibdi: «Kimda-kim qarib qolgan ota-onasini yo'qlamasa, xabar olmasa, ko'ngil so'ramasa, mana shu tayoq bilan kaltaklansin!». Uch o'g'il nima deyishini bilmay yuzlari qizargancha mulzam bo'lib yerga qarab qolishibdi. Ayni paytda ular nimalar haqida o'ylayotganlarini hech kim bilmas emish. Oradagi sukutni mahalla oqsoqolining do'rillagan yo'g'on ovozi buzibdi.

– Ha, «Ota rozi – xudo rozi», degan gaplar bor edi. Nazarimda, sizlar bu so'zlarni unutib qo'ygan ekansiz, afsus... – deb boshini sarak-sarak qilib hovlidan chiqib ketibdi...

❧ SINCHKOV CHO'PONGA KATTA MUKOFOT ❧

Qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Bir qarashda boshqa podshohlarga o'xshab ham ketar ekan, goho o'xshamay ham qolar ekan. Bir qarasangiz, saxiy, qo'li ochiq ekan. Yana bir qarasangiz, mulkiga bir so'mlik ziyon yetkazgan kishini dorga osishga buyurar ekan. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan g'alati-g'alati tomoshalar uyushtirar ekan. O'ng tomonida o'ng vazir, chap tomonida chap vazir o'tirar ekan. Tomoshani hammalari kuzatib o'tirar ekan. Podshoh «Zo'r!» desa ikki vazir birdan o'rnidan turib:

– Zo'r!

– Zo'r! – deb hayqirishar ekan. Agar podshohning ko'ngli to'lmasa ikki vazir:

– Xom!

– Xom! – deb baqirishar ekan.

Podshoh bir kuni saroy hovlisiga bir arava toshni to'ktiribdi. Atrofiga saroy allomalarini to'plab: «Qani, shuni baholanglar-chi. Bu nimaga o'xshaydi?» – deb so'rabdi. Saroybon o'rnidan turib:

– Taqsir, bu bir uyum tarvuzga o'xshaydi, qarang, birisi xom, kichkina, birisi pishgan, katta, – debdi.

– Xom! – deb hayqiribdi podshoh. Unga qo‘shilib vazirlar ham «G‘o‘r!», «Chala!» deb javob qaytarishibdi. Yana bir kishini chaqirib kelishibdi. U podshohning askarlaridan biri ekan. «Qani, buni nimaga o‘xshatasan?» – deb so‘rashibdi undan ham.

– Jang maydoni bo‘lib o‘tganga o‘xshaydi, olampanoh! Katta-kichik kallalar kesilgan, o‘shalar dumalab yotibdi, – debdi. Yo‘q, bu javob ham podshohni qoniqtirmabdi. Yana bir lavozimdagi kishini chaqirib kelishibdi, keyin boshqasini chaqirishibdi. Biri tikilib turib: «Dehqonlar uy qurayotganda loydan guvala yasashadi, bir arava guvala shu yerda turganga o‘xshaydi», – debdi. Yo‘q, bu javob ham podshohning ko‘nglidagi javob bo‘lmabdi. Bu savol-javoblar yurtga ovoza bo‘libdi. Hamma o‘z fikrini bildirishni istarmish-u, saroyga borishga jur‘ati yetolmay yarim yo‘ldan qaytarmish. Bu ovoza yoyilib-yoyilib podshohning cho‘poniga ham borib yetibdi. «Kelasi safar sen ham ishtirok etasan», degan topshiriq bo‘libdi. Cho‘pon yigit kelibdi. Sinchiklab tikilibdi va o‘ylab turib o‘z fikrini bildiribdi.

– Shahanshohim, – debdi yigit, – to‘kilgan bir arava tosh faqat toshlarning o‘ziga o‘xshaydi, – debdi. Hammalari hayron bo‘lib: «Nima, nima deyapsan?» – deb so‘rashibdi. Yigit dadil turib: «Har bir narsa o‘z asliga o‘xshaydi. Asli tosh toshning o‘ziga o‘xshaydi», – debdi. Yigitning bu so‘zi ko‘pchilikka ma‘qul bo‘libdi.

«Chindanam, har bir narsa asliga o‘xshaydi», degan gap hamma yoqqa tarqalib ketibdi. Yigit

chinakam sinchkov ekan. Podshohning besh yuz qo'yi vazirning besh yuz qo'yiga aralashib ketsa bu podshohniki, bu vazirniki deb bemalol ajratib tashlar ekan. Ba'zi bir kishilar bozordan ot olmoqchi bo'lsa, shu yigitni boshlab borar ekan. Sen sinchkovsan, sinchkovlingini ishlat. Bizga ot tanlab ber der ekan. Yigit otlarga diqqat bilan tikilib:

– Bu ot uloqqa yaramaydi. Bu ot katta yuk tortishga yaraydi. Bu ot poygalarda o'zib ketadi, – degan gaplarni ham aytib yurar ekan. Shunday qilib, ko'pchilik oldida yigitning «Har bir narsa o'z asliga o'xshaydi», degan gapi hikmatga aylanib, odamlar bu so'zni tez-tez takrorlaydigan bo'libdi. Podshoh yigitni huzuriga chaqiribdi.

– Sen sinchkovlikni kimdan o'rgangansan? – deb so'rabdi.

– Otamdan, – debdi yigit.

– Otang-chi, – deb so'rabdi podshoh.

– Otasidan o'rgangan, – debdi. Shundan keyin yigitning aql bilan farosatni qo'shib ishlatgan so'zi, ya'ni, har bir narsa o'z asliga o'xshaydi degani ma'qul bo'lib podshoh yigitni saroyga taklif qilibdi. Qizlaridan birini unga nikohlab berib, o'zining saroyida olib qolibdi.



❧ MUZEYGA KELGAN XO‘TIKCHA ❧

Shaharning sal narirog‘ida, qishloqning sal berirog‘ida «Hayvonlar uchun g‘oyat go‘zal muzey ochilibdi!» degan ovozlar ham shaharga, ham qishloqqa teppa-teng tarqalibdi. Odamlar guruh-guruh bo‘lib kelishar, muzeyni tomosha qilib: «Yo tavba, maymunga ham haykal qo‘yishar ekan-a», «Voy tavba, quyonga qo‘yilgan haykalning kattaligini qarang, bo‘rini yeyman deb turibdi-ya», degan hayratomuz gaplarni aytishar emish. Dunyoda shunday voqealar ham bo‘lar ekan-da!

Odamlar hang-u mang bo‘lib turgan paytda davrani ikkiga bo‘lib xo‘tikcha kirib kelibdi va oyog‘ini ikkiga yorib, baland ko‘tarib bir hangrashga tushibdi... Muzeyning darvozasini oldingi ikki oyog‘i bilan do‘mbira qilib chala boshlabdi... Yo‘q, bu hali hammasi emas, odamlarni hayratga solgani xo‘tikcha ikki orqa oyog‘i bilan darvozani zarb bilan tepardiki...

– Och darvozungni! – dermish xo‘tikcha kuchli ovoz bilan.

Ichkaridan:

– Chipta olish kerak! – degan ovoz chiqarmish.

– Kecha kelib muzeyni tomosha qilib ketganman, – degan javobni qaytarar emish xo'tikcha. – Mana, ishonmasang chipta cho'ntagimda turibdi.

Ana shunday savol-javoblar, ma'qullash-u e'tirozlar bo'lib turgan bir paytda g'alati bir voqea yuz beribdi. Qiziq, dunyoda qancha eshak bo'lsa, hammasi ikki orqa oyog'i bilan dunyodagi barcha darvozalarni tepayotgan emish. Odamlar bundan hayratlanib: «Yopiray! Yopiray!» deb yoqa ushlayotgan emish. Qiziq, dunyodagi barcha eshaklar birlashsa, ularning ovozi katta kuchga, qudratga, vahimaga aylanar ekan-da. Odamlar, tomoshabinlar hayron qolishibdi. Shu payt xo'tikcha baralla ovozi bilan:

– Mana, o'yinchi maymunga haykal qo'yibsani!

– Mana, ayyor tulkiga haykal qo'yibsani!

– Mana, yirtqich bo'riga haykal qo'yibsani!

– Mana, qo'rqqoq quyonga ham haykal qo'yibsani!

Nega mening ota-bobolarimga haykal qo'ymading. Ming yillar davomida elning og'ir xizmatini qilgan biz – eshaklar edik-ku! Ming yillar davomida tegirmonga yuk tashigan biz edik-ku! Ming yillar davomida nabirasini orqasiga mindirgan chollarni sayohatga olib chiqqan biz edik-ku! Ming yillar davomida aravaga qo'shib yuk tashitgan damlaringda jonga oro kirgan biz edik-ku! Nega yelkamiz yag'ir bo'lgan biz eshaklarga haykal qo'ymading? Darvozaningni buzamiz, yo'llaringni to'samiz! – deb hayqiribdi. Unga qo'shib haligi eshaklar yana hangrashga tushibdi. Yana olamni eshaklar ovozi

bosibdi. Bu holatdan muzey direktori xavotirga tushibdi. «Yaqinda nabiramga to‘y qilmoqchi edim, muzeyga daromad tushmay qolsa, to‘yni qanday o‘tkazaman, axir!» deb xunob bo‘libdi. Qo‘llarini qovushtirib darhol eshakchanning oldiga chiqib aybdorona bosh egibdi.

– Uzr, janobi mehnatkash eshaklarning nabirasi. To‘g‘ri, har bir zot o‘z mehnatiga yarasha qadr-qimmatga ega bo‘lishi kerak. Ertagayoq sizning – dunyodagi yelkasi yag‘ir bo‘lgan eshakning haykalini ochaman. Sizdan bir iltimos, ketmang. Nabiramning to‘yi kuni sizni yasatib, yelkangizga nabiramni mindirib, to‘yxonaga olib kiraman, – deb yalinib-yolvoribdi. To‘satdan olamdagi eshaklarning ovozi biroz pasaygandek bo‘libdi. Shunda har yer, har yerdan: «Har bir zot o‘z mehnatiga yarasha qadrini ham so‘raydi-da», – degan gaplar tarqalibdi. Muzey ochilib, yana odamlarning kirdi-chiqdisi avj olib ketibdi.



NOVVOS KO'TARGAN BOLA

Qadim-qadim zamonlarda odamlar hozirgi zamon odamlariga o'xshab, katta-yu kichik birgalashib go'zal bayramlar o'tkazisharkan. Sayilgohlarga to'planishib, har xil musobaqalar, bahslar uyushtirisharkan. Sayillar chiroyli o'tsin deb kattakon doshqozonda palovlar pishirilar ekan. Goho sumalak sayli ham bo'lar ekan. Bunday kezlari, ayniqsa, bolalarning quvonchi olamga sig'may ketarkan. Yelkasida o'rtog'ini ko'tarib yugurish deysizmi, chuqurlikdan sakrab o'tish deysizmi, bir nafasda uzoqqa yugurishmi... Ehhe, bolalarning o'yinlari, ular orqali keladigan quvonchlari behisob bo'lar ekan. Ko'pincha, bunday sayilgohlarda yurtning ellikboshisi, mingboshisi, e, boringki, eng katta obro'li kishilari ishtirok etib, goho o'yinlarda, musobaqalarda g'olib bo'lganlarga mukofotlar ham berar ekan.

Nihoyat, yaylovda bir joyga yurtning mingboshisiga alohida o'tiradigan bir joy tayyorlashibdi. Mingboshi yoniga baho beruvchi eshon-u domlardan, ellikboshi-yu tajribali kishilardan anchasini to'plabdi.

— Boshlanglar! — debdi.

Bir dehqon shunday bir qo‘yni yetaklab o‘tibdiki, qo‘y bir yo‘la uchta tuqqan ekan. Uchchov qo‘zichoq onasiga ergashib ortidan sakrab-sakrab borayotgan ekan. Tomoshani kuzatayotganlar:

– Zo‘r!!! – deb baho berishibdi. Mingboshi ham qoyil qolib, qarsak chalib, mukofot beribdi. Keyin to‘satdan bir yosh yigitcha otga minib olib otini o‘ynatib-o‘ynatib o‘tib borarmish. Ot to‘xtab bir o‘ngga, bir chapga qarab boshini egib salom ham berayotgan emish. Oldingi ikki oyog‘ini ko‘tarib, mingboshiga qulluq ham qilibdi. Kuzatuvchilar, baholovchilar hammalari:

– Zo‘r!!! – deb baho berishibdi. Mingboshi bu yigitga ham yaxshi mukofot beribdi. Bir payt g‘alati bir voqea sodir bo‘libdi. Yosh bir yigitcha katta bir novvosni yelkasiga mindirib shoshmasdan o‘tib borayotgan emish. Odamlar – bu bola o‘zidan besh barobar katta yukni qanday olib o‘tayotgan ekan-a?» deb hayron bo‘lib qarasharmish. Mingboshi ham hayron bo‘libdi.

– Qaranglar-chi, bu novvosning terisiga somon tiqib ko‘tarib o‘tayotgan bo‘lmasin, – debdi hayrat bilan. Yigitdan bunday katta yukni qanday qiynal-may ko‘tarib o‘tayotganini so‘rashibdi.

– Bundan ikki yil avval qish qattiq keldi, ayvondagi sigirim tug‘ib bo‘lgandan keyin og‘zi muzlab, tarrakdek qotib qoldi. Men buzoqcha o‘lib qolmasin deb katta to‘ninga o‘radim-da, yuqoridagi uyimga olib chiqdim. Sut berdim, suv berdim, boshini o‘pib-o‘pib erkalab turdim. Keyin har kuni

bir marta uni ko'tarib pastga olib tushardim. Toza havо olsin deb aylantirardim. Keyin yana yuqoriga olib chiqib ketardim. Shunday qilib, mana ikki yildan buyon buzoqcha novvos bo'ldi. Novvosni esa yelkamda ko'tarishga o'rganib qoldim, — deb yigit to'xtamasdan yelkasidagi novvosni ko'targancha o'tib borarkan. Tomoshabinlar o'rnilaridan turib:

— Zo'r!!! Zo'r!!! — deya qarsak ustiga qarsak chalishibdi. Novvosni ko'tarib katta qilgan yigit-chaga mingboshining ham havasi kelibdi. Zavqi oshibdi.

— Hoy yigitcha, menga qara, ot sovg'a qilmoqchiman senga. Ot minishni bilasanmi?, — deb so'rabdi. Yigitcha yelkasidagi yukni tushirmasdan turib:

— Mingboshi bobo, xudo xohlasa yanagi yilga siz sovg'a qilgan otingizni yelkamda ko'tarib o'taman, — deb javob beribdi. Hammalari inson mashq bilan kamolga yetar ekan-da, deyishib yelkasida novvosni ko'tarib, otni yetaklab chiqib ketayotgan yigitga tinimsiz qarsaklar chalib, havas-la uni olqishlashibdi.



❧ AYIQ POLVONNING ARAZLAB KETGANI ❧

Qadim-qadim zamonda, olamni baland-baland o'sadigan daraxtlar qoplab olgan yuksak tog'lar boshida qorlar bamisoli salla o'ragan bobodek qad rostlab turar, daryolardagi suvlarda baliqlar quvonchi ichiga sig'may sakrab-sakrab suzadigan kunlar ko'p bo'lgan ekan. Ana shunday zamonlarning birida katta o'rmonning bir chekkasida ko'rimsizgina bir kulbada yosh er-xotin yashar ekan. Eri kun bo'yi o'rmonlar oralab quruq mevalardan terib kelar ekan, xomlarini esa quritarkan. Keyin bozorga olib borib sotib ham kelar ekan. Xotini esa xo'p pazanda ekan. Shirin-shirin taomlar pishirar ekan. Ikkovlari bir-birlariga mehr ulashib, muhabbat ulashib yashar ekan. Yigit o'rmondagi barcha hayvonlar bilan — bo'ri deysizmi, sher deysizmi, ayiq deysizmi, bora-bora do'stlashib ham ketgan ekan. Birgalashib yurgan paytlari ham ko'p bo'lgan ekan. Yigit bir kuni yong'oq terayotgan ekan, gumburlagan o'q ovozi hammayoqni qoplab ketibdi. O'q ovozi bir emas, ikki marotaba otilgandek bo'libdi. Katta daraxtlarning boshi egilibdi, kichik daraxtlar joyidan siljigandek bo'libdi. Qanchaki qush bo'lsa, hammasi chuvillashib faryod chekib,

osmon-u falakka ko'tarilibdi. Yigit o'q ovozi kelgan tomonga qarab yuguribdi. Bir joyga borib to'xtab:

– Ey Xudo, ular mening yaxshi ko'rgan ayig'imni otishibdi, mana sudrab ham ketishibdi, yosh niholchalarni sindirib, bukib o'tishibdi, – deya faryod chekibdi. Bir uyoqqa, bir buyoqqa yuguribdi. Ammo qayerga sudrab ketishganini bilmay qolibdi. Ana shu paytda katta bir yong'oqning katta kavagidan bir ayiq bolasi dumalab-dumalab chiqibdi. Ikki oyog'ini ko'tarib:

– Onamni otdilar! Uni sudrab ketdilar! O'rmon chetiga yetdilar! Onamni topib bering, onamni topib bering! – deb yaqin kelib, yigitga suykala boshlabdi. Yigitning bu beozorgina ayiqchaga rahmi kelib mehr bilan ko'tarib bag'riga bosibdi, yumshoq-yumshoq yunglaridan silab:

– Onangni topamiz, onangni, albatta, topamiz, – degan gaplarni aytibdi. Ayiqchani esa bag'riga bosganча uyiga olib ketibdi. Boqibdi, parvarish qilibdi. Go'sht desa, go'sht beribdi, o't desa o't beribdi. Ayiqcha unga shu qadar o'rganib qolibdiki, yigit o'rmonga meva tergani borsa, birga borar emish. Yigit quritgan mevalardan bir qismini sotish uchun bozorga borsa, orqasidan ergashib borarmish. Ko'pincha, yosh bolalar tomoshaga chiqib, «Amakijon, ayig'ingizni bir o'ynatib bering», «Mana shu daraxtga bir chiqarib bering», «O'zingiz bir kurashga tushib ko'rsating», degan gaplarni aytar ekan. Xullas, yigitcha ayiq yetaklab o'tgan kuni

qishloqlarda, bozor boshlarida katta sayil ham bo'lib ketar ekan.

Bir kuni xotini unga arzi dod qilibdi.

– Menga qarang, – debdi qoshlarini uchirib. – Mana bu sassiqni qachon yo'qotasiz, jonimga tegdi-ku. Og'ilxona sassiq, ayvonlar sassiq. Hammayoqni uning badbo'y hidi bosib ketdi-ku, yo'qoting tezda, – deb talab qila boshlabdi. Yigit ayiqning boshini silab:

– Sassiq emas. Sassiq emasman degin, – deb erkalabdi.

Ayolning battar jahli chiqib, fig'oni falakka ko'tarilibdi.

– Sassiq!!! Sassiq!!! Sassiq!!! – deb jar solibdi. Uning xunuk ovozi butun o'rmonni larzaga keltirgudek bo'libdi. Bu gaplarni eshitib turgan ayiq-polvon ichkariga kiribdi-da, katta bir boltani ko'tarib chiqib ayolning qo'liga beribdi.

– Mana shu bolta bilan boshingga urasan, – debdi.

– Nimalar deyapsan, yo'q, men urmayman, qo'rqaman, – debdi ayol.

– Agar urmasang, shu zahoti sening boshingga bolta bilan o'zim uraman, – debdi. Ayol battar qo'rqib sarosimaga tushibdi. Boltani qo'liga olib engashib turgan ayiqning boshiga qattiq uribdi. Ayiqning boshidan tirqirab qon otilib ketibdi. Ayiq boshidan oqqan qonni oqiza-oqiza o'rmon ichiga kirib ketibdi.

Oradan bir qancha muddat o'tgach, o'rmon tomondan yana o'sha tanish ayiq kelayotganini ko'rib

qolishibdi. Ayiq ayolning yoniga to'xtab, boshini egibdi.

– Mana ko'rgin, bolta bilan urganingdagi yaram bitdi, lekin qalbinga bergan yarang haligacha bitgani yo'q, – debdi. Shunda ayiq sekin teskari qarabdi-da, yana o'rmonga kirib keta boshlabdi.

Shu tufayli odamlar «Tig' yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi», degan naqlni aytib, nabiralariga, o'g'il-qizlariga so'zlashganda gapiga ehtiyot bo'lishni uqtirar ekan.



❧ QO'SHNI TOVOQNING XOSIYATI ❧

Roviylarning rivoyat qilishicha, Odam Ato va Momo Havo onamiz: «Dunyoga kelib yaxshi farzandlar ko'rib, bir-birlaringga yaxshilikni ravo ko'ringlar. Faqat yaxshi niyatlarni izhor qilib yashanglar, bir-birlaringni duo qilinglar. Duo kishini Allohga yaqinlashtiradi. Duosiz qolgan uy xarobaga aylanadi, duosiz qolgan mamlakatni yer yutadi», degan nasihatimiz gaplarni aytib ham ketishgan ekan. O'sha zamonlarda noahil qo'shnilar ham bo'lgan ekan. Ahillik yo'q bo'lgani uchun bu mamlakatlar ham, bu qo'shnilar ham o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketavergan ekan. Ulardan roviylarning qisqa-qisqa rivoyatlari saqlanib qolgan ekan.

Bir joyda ikki qo'shni yashar ekan. Chol bilan kampir o'g'il-qizlariga uy-joy qilib berib chiqarib yuborib, endi ikkovlari yashar ekan. Ularning yon qo'shnisi olamdan o'tib, undan mehribongina ayol va to'rt bola qolgan ekan. Ikki uyning o'rtasini bitta devor bo'lib turar ekan. Devordan eshikcha ochib qo'yishgan ekan, shu eshikcha orqali bir-birlaridan ko'ngil so'rar, sihat-salomatligidan boxabar bo'lib turar, pishirgan taomlaridan ilinib: «Duo qilinglar», – der ekan. To'rt bolaning onasi

shirguruch pishirib, o'rtadagi teshikchadan uzatar: «Onajon, dadajon, nabiralaringizni duo qiling», — der ekan. Chol bilan kampir o'rtaga dasturxon yoyib yumshoqqina taomni yer ekan-da, ikkovlari baravar qo'l ko'tarib: «Ey Alloh, shu qizimning o'g'il-qizlari sog'-salomat yurishsin, betob bo'lishmasin, tezroq kamolga yetib, el-u yurtning xizmatida bo'lsin», — deb niyat qilar ekan. Ertasi kuni chol bilan kampir o'zlari yeydigan taomdan o'sha idishga solib ularga uzatar ekan. Ona to'rt bolani yoniga olib o'rtaga dasturxon yozar, bolalari zo'r bo'libdi, shirin pishibdi deb talashib, maza qilib yeb olishar ekan.

Dasturxonni yig'ishdan oldin to'rt bola qo'lini duoga ko'tarib: «Ey Alloh, bobomiz bilan buvimizning umrini uzoq qilgin, bizga beradigan maslahatlari yana ko'paysin. Bobomlar tufayli biz o'zimizni erkin sezamiz, ularga ko'proq umr bergin», — deb niyat qilishar ekan. Xullas, ikki qo'shni bir kosa ovqat orqali bir-birlarini muntazam duo qilar ekan. Duo esa Allohga borib yetib turar ekan.

Kunlarning birida to'satdan bir falokat yuz beribdi. Uch kecha-yu uch kunduz tinmay yomg'ir yog'ib, ko'chalarda suvlar daryo-daryo bo'lib oqibdi. Qishloqda o'ttizta xonadon bor ekan, to'rtinchi kuni mana shu qishloqdagi barcha uylarni yomg'ir yuvib ketib, hammayoq tep-tekis bo'lib ketgan emish. Birgina chol bilan kampir yashab turgan mo'jazzgina hovli hamda to'rt bolasi bor oilaning shinamgina uylari bu talofatlardan ziyon ko'rmagan emish.

Hatto, devori ham buzilmagan emish. Shunda bu holatni ko'rgani kelganlar:

– Ha, duo hamisha Allohga boradi. Ahillik ham katta kuchga ega. Agar boshqa xonadon egalari ham ahil va bir-biriga oqibatli bo'lishganida, bir-birlariga yordam berganlarida edi, ko'chada qolmagan bo'lardi. Bittasi: «Dod, uyimni suv bosyapti!» deb dodlasa, ikkinchisi yordam berish o'rniga: «Ovozini o'chir, meniki senikidan battar bo'lyapti!» – deb ters burilar emish.

«Duosiz yurtda ahillik bo'lmas ekan, mehr bo'lmas ekan, muhabbat bo'lmas ekan. Qaysi yurtda duo bo'lmasa, bu yurt bir sababdandur yo'q bo'lib ketar ekan», – deb roviylar qo'shnining o'rtadagi bordi-keldi tovog'ining xosiyati – ahillik haqida ushbu hikoyani qoldirib ketgan ekan.



❧ AQLLI BOLA ❧

Qadim-qadim zamonda, kunga betgay tomonda tog' etagidagi ellik uyli bir qishloqda aholi yashar ekan. Ular g'oyat qashshoq ahvolga tushib qolgan ekan. Yozda suv yo'q bo'larmish, buning natijasida daraxtlar ham quriy boshlarkan, qishda sovuq qattiq kelib, yoqaylik, isinaylik deyishsa, o'tin ham topilmas ekan. Ariqlari suvsiz, mol-u qo'ylari oriq ekan, hatto tovuqlari ham onda-sonda bitta tuxum tug'sa tug'ar, tug'masa tug'may qo'yar ekan. Ana shunday xarob bir qishloqda «Bir aqlli bola bor» degan ovoza tarqab ketibdi. Bu ovoza podshohning qulog'iga ham borib yetibdi.

– Ey, tavba, – debdi shoh, – shunday yer bilan yakson bo'lib yotgan qishloqdan ham aqlli bola chiqarmikan, – deb o'ylabdi. Vaziriga topshiriq beribdi. Vazir kelib haqiqatan ham shu yurtda aqlli bola borligini kelib ko'rib ketibdi.

– Yo'q, shoshma, – debdi podshoh, – o'zim ham borganim yaxshi. O'zim borib bir ko'ray shu bolani, – debdi.

O'ttiz sarboz o'ng tomonida, o'ttiz sarboz chap tomonida, o'ng vazir-u chap vazirlari himoyasida podshoh o'zining katta ov otiga minib, shu qishloqqa

yaqin kelibdi. Otdan tushmasdan turib vaziriga aytibdi:

– Bor, o’sha bolani top. Podshohi olam senikiga mehmonga kelayapti degin, – debdi. Vazir boribdi. G’aribgina uyda ko’cha eshiklari ham buzilib ketgan, hovlidagi so’rilari ham qiyshayib ketgan xonadondan bolani topibdi. Vazir bolaga qarab turib:

– Podshohi olam sening uyingga mehmonga keladi. Qo’y so’yib, mehmon qilasanmi, – deb so’rabdi. Bola bunday xabardan o’zini yo’qotmabdi. Dadil turib:

– Topsam, bir qo’y so’yaman, topolmasam ikkita qo’y so’yaman, – deb javob beribdi. Vazir bu so’zlarni qanday eshitgan bo’lsa, shundayligicha podshohga yetkazibdi. Podshoh navkarlari himoyasida yonida vazirlari bilan o’sha xarob uyga kelib tushibdi. Qiyshayib yotgan o’sha so’riga yangi ko’rpachalar, bolishlar solib, podshohga joy qilishibdi. Ziyofat avjiga chiqibdi. E, boringki, navkarlar ham, vazirlar ham biqirlab qaynab xil-xil pishgan go’shtlardan yeyishibdi. Podshoh ham tortinib o’tirmasdan ancha-muncha taom iste’mol qilibdi. Keyin o’rnidan turib:

– Sen topsam bir qo’y so’yaman, topolmasam, ikki qo’y so’yaman, degan eding. Men ana shu gapingning poyoniga yetish uchun kelganman, – debdi. Bola o’zini yo’qotmay, dadil turib javob berishga kirishibdi.

– To’g’ri, shu gapni aytganim haqiqat. Sizning uyimga mehmon bo’lib kelishingizni eshitib qishloq-

ma-qishoq, uyma-uy yurib semiz qo'y axtardim. Semiz qo'y tugul orig'i ham yo'q ekan qishlog'imizda. Shunda o'zimning bugun-erta tug'aman deb turgan bo'g'oz qo'yimni so'yirdim. O'zingizga va navkarlaringizga ana shu ikki qo'yning go'shtidan sho'rva pishirdim, – debdi. Yoshgina bolaning chiroyli so'zi podshohning ko'nglini zabt etibdi. Ma'qul gapni ayta olgani uni xursand qilibdi. Bolaning aqlli ekanligi, so'z o'yini orqali niyatini bayon qilganligi podshohga ma'qul bo'libdi va farmon beribdi:

– Qishloqdagi qurib qolgan barcha ariqlar ochilsin, daryodan suv chiqarilsin, cho'kib qolgan imoratlarni buzib tashlab, yangisi qurilsin, – deb farmon beribdi. Aqlli bolaning onasi bilan o'zini saroyiga olib ketib, «Shu aqlli bola mening o'g'lim bo'ldi», deb barchaga ovoza qilibdi.



❧ BUYUK BOBOMIZNING BUYUK HIMMATLARI ❧

Amir Temur bobomiz tengi yo‘q buyuk sarkarda, buyuk adolatparvar, buyuk haqiqatchi va buyuk mehr-muhabbatli inson ham bo‘lgan ekanlar. Lekin bosqinchilarga shafqat qilmagan ekanlar. Ularni, ya‘ni bosqinchilarni yigirma yetti mamlakatdan quvib chiqarib, o‘sha mamlakatning aholisiga ozodlik imkonini bergan ekanlar. Haqiqat yo‘lidan, Haq yo‘lidan boringlar degan ekanlar. Jasur askarlarining, mard qo‘shin-boshliqlarining goho uzoq-uzoq qishloqlarda yashayotgan jasur yigitlarning ham qadriga yetib, yuksak-yuksak mukofotlar berar ekan.

Bu haqda haqiqat ko‘p, afsonalar ko‘p, rivoyatlar ko‘p yozilgan.

Bir kun katta safardan katta muvaffaqiyat bilan qaytib kelgach, askarlariga dam olishga ruxsat berib, o‘zlari yaxshi ko‘rgan nabiralaridan birini olib, «Bog‘ikusho» bog‘larida dam olayotgan edilar.

Shu paytda hashamatli darvoza oldida qo‘llarida nayza ushlab turgan qorovullarga bir mushtipar ona kiyimlari yirtilib ketgan, oyog‘idagi kalishning yarmi yo‘qolgan, boshlarida bir parchagina latta

o'ralgan holda kelib: «Men shahanshohning oldiga kirmoqchiman, och darvozangni», – debdi. Qorovulda turganlar: «Amir Temur bobomiz oldiga ancha-muncha mamlakatlarning elchilari kirolmaydi, o'zlarining minglab qo'shinlariga boshchilik qiladigan sarkardalari kirolmaydi-yu, senga yo'l bo'lsin», – deb javob qaytaribdi.

Ona oyog'i bilan yer tepib:

– Darvozani ochasan, Men Onaman! – debdi.

Qorovul boshlig'i:

– Tezroq ket bu yerdan! – deb o'dag'aylabdi.

Ayol yana yer depsinib:

– Men Onaman! – deb hayqiribdi.

– Bo'lmasa sen narigi darvozaga bor, ruxsat-noma o'sha yerda beriladi, – debdi.

– Yo'q, – debdi ayol, – men uch yildan buyon yo'l yuraman. Cho'llarda, sahrolarda suvsizlikdan qiynaldim, changalzorlardan o'tganimda tikonlar badanimdan qon chiqarib behol qildi. O'rmonlarda bo'rilarga yem bo'lishim mumkin edi. Yo'q, yo'q, men Amir Temurning huzuriga kirishim kerak, – deb qat'iy turib olibdi.

– Xo'sh, arzing nima o'zi, arzingni ayt bo'lmasa, – deb so'rabdi qorovulboshi.

– O'g'lim asirga tushgan, boshqa bir o'g'lim bobomiz askarlari qal'amizni himoya qilayotganda o'ldirilgan. Mayli, o'lgani ketdi, yurtning himoyasi uchun ketdi, lekin bir zargar o'g'lim shu yerda, shuni so'rab keldim, – deb yana yer depsinibdi.

– Menga qara, sening o‘g‘ling qaysi qal‘ani himoya qilayotganda halok bo‘lgan? – so‘rabdi qorovul.

– Mening pahlavon o‘g‘lim Al-Ahrom qal‘asini himoya qilishda o‘lgan, – deb javob beribdi. Ana shu paytda Amir Temur bobomiz o‘ynayotgan shaxmatini to‘xtatib, gapga quloq solib turgan ekan, Al-Ahrom qal‘asi himoyasini eslabdi. O‘sha yurtning yigitlari o‘z yurtlarini mardona himoya qilganini ko‘rgan, eshitgan ekan.

Buning ustiga, «Men Onaman!» deb yer tepsinib turgani Amir Temur bobomizning ruhiga qattiq ta‘sir qilib:

– Men Onaman!

– Men Onaman!

– Men Onaman! – degan so‘zlar qulog‘i ostidan ketmabdi. Farmon bo‘libdi. Yupun kiyingan onani o‘z huzuriga keltirishlarini buyuribdi.

– O‘g‘ling Al-Ahrom himoyasida o‘lganmi? – deb so‘rabdi Amir Temur bobomiz. Men jasoratli insonlarni, agar u dushmanim bo‘lsa ham hurmat qilaman. Sening uch yildan buyon yo‘l bosib mana shu yerga yetib kelishing menga boshqa onalarga namuna bo‘lishga arziydigan bir holatni eslatdi. Men hamisha jasurlikni, jasoratni himoya qilganman, – debdi.

Farmon beribdi, Al-Ahrom qal‘asidan asirga kelganlarni aniqlashibdi. Ularning hammasi yer ostidagi qurol-aslaha yasaydigan joyda berkingan ekan. Onaning jasorati uchun Amir Temur bobomiz

qolgan o'ttizta asirga ham javob berib, Amudaryodan o'tguncha ularni himoya qilib borishlarini tayinlabdi.

Darhaqiqat, Amir Temur bobomizning: «Jasurlik, jasorat kimda bo'lishidan qat'iy nazar, ulug'lanishi shart!» degan so'zlari asrlar davomida o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan eng purhikmat so'z ekani shubhasiz.



❧ GOVMISH SIGIRNING ALAMI ❧

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda emas, siz bilan men yashab turgan ushbu zamonda ajoyib-ajoyib voqealar, kutilmagan hodisalar bo‘lib turar ekan. Qiziq, hayvonlar xuddi odamlarga o‘xshab gaplashar ekan. Bog‘lardagi daraxtlar mevalarini ko‘z-ko‘zlash uchun bozorlarga o‘zlari jo‘nab qolar ekan. Ariqlardagi suv to‘satdan sharbatga aylanib, odamlarning chanqog‘ini qondirishga harakat qilar ekan.

Ana shunday kunlarning birida obod mahallaning obod bir ko‘chasida kattakon govmish sigir yelini sutga tolib, yonida buzoqchasi yurib borayotgan emish. Uning otini mahalladagi bolalar Govmish xola deb ham atar ekanlar. Ana shu Govmish xola ko‘chadan o‘tayotganida odamlar devorning chekkasiga o‘tib:

– Yo tavba! Yo tavba! – deyishar ekan. Bu qiziq tomoshani ko‘rish uchun mahalla bolalari goh govmishning oldiga o‘tib, goh orqasiga o‘tib:

– Men avval ko‘rdim. Yo‘q, sendan avval men ko‘rdim, – deb maqtanishar emish. Govmish to‘xtab:

– Og‘zida tilla tishi bor xotinning uyi qaysi tomonda? – deb so‘rabdi. So‘rayotganda katta

boshini ko'tarib, bir silkitib qo'yibdi. Odamlar javob berish o'rniga yelkalarini qisishibdi. Lekin Govmish xola shu mahalladagi keksa kampirlardan o'zining aqli bilan hech qolishmas ekan. Og'zida tilla tishi bor ayolning uyiga o'zi kirib boribdi. Kutilmagan bu tashrifdan ayol hang-mang bo'lib qolibdi. Govmish xola kuzatsa, ayolning xonadonidagi ikki xizmatchisi kuyib-pishib ishlashayotgan emish. Bittasi sutning yog'ini olish uchun kuvani chayqatayotgan ekan, yana bittasi qozondagi sutga ozgina suv qo'shib, qaynatayotgan ekan.

Shunda hovlidagi hammalari jim bo'lib, Govmish xolaga tikilib qolishibdi.

– Mendan sut olishing rostmi? – deb so'rabdi Govmish xola.

– Esimda yo'q, – debdi og'zida tilla tishi bor ayol.

– Govmish xola sutni kam beradi, degan gapni tarqatgan sen-ku!

– Yolg'on, men bunday deganim yo'q.

– Govmishning suti kamyog' bo'lib qoldi, deb ham gap tarqatibsan.

– Taraqatganim yo'q, o'zing chindanam kamyog' bo'lib qolgansan.

– Sutga suv qo'shib qaynatishing yolg'onmi?

– Yolg'on, sira suv qo'shgan emasman, – debdi ayol.

Govmish g'azabga kelibdi. Ayolni asta-sekin qisib, devorga tirab, mahkam siqib qo'yibdi.

– Hamma gaplaringni bo‘yningga olasanmi? – debdi.

Ayol qo‘rqa boshlabdi.

– Nima bo‘lsa ham bu hayvon-ku, axir men yanagi haftaga quda chaqirmoqchi edim. Ungacha o‘lib qolsam, shuncha harakatim nima bo‘ladi? – deb xavotirga tushibdi. – Suv qo‘shishimni, yog‘ini olib qolishimni bo‘ynimga olsam olay, – deya o‘ylabdi. Keyin yana fikridan qaytib: – Yo‘q, nega bo‘ynimga olishim kerak. Hammayam qo‘shadi-ku, hamma sutchilarda ham shu gap bor, axir, – debdi.

Ana shunda Govmish sigir tilla tishli ayolni devorga shunday qattiq qadab itaribdiki, ayol u yoqda qolib, xizmatchilari dod deb yuborishibdi. Ayol past ovoz bilan:

– To‘g‘ri, oldin sutning yog‘ini olaman.

– To‘g‘ri, sutga oz-oz suv qo‘shaman!

– To‘g‘ri, Govmishning suti kamayib qoldi degan gapni o‘zim tarqatganman! – deb tavbasiga tayanib, sigirning boshini mahkam quchoqlab olibdi. Sigir aqlli ekan, «Bu gaplarni bugun aytdi, ertaga aytmasligi ham mumkin, yana battarini qilaveradi», deb o‘ylabdi.

– Yo‘q, bu gaplaringga ishonmayman. Shartnoma tuzamiz, unga sen ham, men ham imzo chekamiz, – debdi. Ayol «Hayriyat, o‘lmay qoladigan bo‘ldim», deb ko‘ngli yorishibdi. Ular shartnoma tuzibdilar. Uning qisqacha mazmuni shunday edi:

«Biz tubanda imzo chekib shartnoma tuzuvchilar – Oqsoy mahallasining 12-uyida yashovchi

Oltinxon Mahkam qizi, ikkinchi tomondan katta mahalladagi katta molxonada yashovchi Govmish xola. Oltin xola sutga suv qo'shmaydi, Govmishning suti kam bo'lib qoldi, degan tuhmatni aytmaydi. Govmish xola esa sutni bugungidan yana ham ko'proq sut berishga, ko'proq foydali yemlardan yeb turishiga va'da beradi, deb imzo chekdik».

Shu voqea sabab bo'lib Oltin xola sutga suv qo'shmaydigan bo'libdi, Govmish xola seryog' suti larni yana ham ko'proq beradigan bo'libdi. Bu boshqalarga ham katta saboq bo'libdi.



❧ CHIGIT OPPOQ PAXTA BO'LGANI ❧

Bir bor ekan, bir yo'q yo'q ekan. Juda qadim zamonda nurli tog'dan berida, yassi tog'dan narida sersuv dalalarda mehnatsevar insonlar ko'p yashagan ekan. O'sha yillari o'rmonlardagi, dalalardagi hayvonlar, uchib yurgan qushlar, hatto yerdan unib chiqayotgan giyohlar ham xuddi odamlarga o'xshab gaplashar, bir-birlarining uyiga bordikeldi qilishar, bir-birlarini mehmon ham qilishar ekan. Bahor kunlarining birida bir dehqon yigit ozgina yerida mehnat qilayotgan ekan. Bir narsa ekish uchun jo'yaklar tortib, suv yaxshi yursin deb ariqlarini kavlayotgan ekan. Ana shunday paytda bir chumchuq tumshug'ida bir chigitni tishlab kelibdi-da, dehqon yigitning yelkasiga qo'nib:

*Ek-ek, mekunam,
Ekmasang mezanam.
Boshingni talqon qilaman,
Uyingni vayron qilaman, –*

debdi. Dehqon yigit shoshib qolmabdi, o'zini yo'qotmabdi ham.

– Xo'p-xo'p, ekib beraman, – debdi va chigitni darhol yerga qadabdi. O'sha zamonlarda yerga

ekilgan urug'lar tez unib chiqar ekan. Tez rivojlanar ekan. Chigit ham unib chiqibdi. Nozikkina niholcha o'sib-o'sib har ikki tomondan barglar yozibdi. Nozik-nozik tanachalarida shonalar paydo bo'libdi.

Shonalar ko'sakka aylanibdi. Ko'saklar quyosh nuridan bahra olib, asta-sekin ochila boshlabdi. Chumchuq dehqon yigitning yelkasiga qo'nib:

*Ter, ter, mekunam,
Termasang mezanam.
Boshingni talqon qilaman,
Uyingni vayron qilaman, –*

debdi. Dehqon: «Xo'p, xo'p», – deb ko'saklarni terib beribdi. Chumchuq tumshug'ida ko'sakni tishlab bir kampirning uyiga boribdi va uning yelkasiga qo'nib ashulasini ayta boshlabdi:

*Chuvi, chuvi mekunam,
Chuvimasang mezanam.
Boshingni talqon qilaman,
Uyingni vayron qilaman, –*

debdi. Kampir xola: «Xo'p-xo'p», – deb ko'sakni chuvib, oppoq paxta holatiga keltiribdi. Chumchuq paxtani tumshug'ida tishlab, boshqa bir kampirning uyiga bordi. Uning yelkasiga qo'nib, ashulasini aytibdi:

*Sava, sava, mekunam,
Savamasang, mezanam.*

*Boshingni talqon qilaman,
Uyingni vayron qilaman, –*

debdi. Kampir: «Xo‘p-xo‘p», – deb savag‘ichni qo‘liga olib, paxtalarni savab, yigirsa bo‘ladigan bir holatga keltiribdi. Chumchuq kelib, uni tumshug‘ida tishlab boshqa bir kampirning uyiga borib:

*Yigir, yigir mekunam,
Yigirmasang mezanam.
Boshingni talqon qilaman,
Uyingni vayron qilaman, –*

debdi. Keyin chumchuq yigirilgan ipni tumshug‘ida tishlab, bo‘zchining uyiga boribdi:

*To‘qi, to‘qi, mekunam,
To‘qimasang, mezanam.
Boshingni talqon qilaman,
Uyingni vayron qilaman, –*

debdi. Bo‘zchi ajoyib bir mato to‘qib beribdi. Chumchuq matoni tishlab, tikuvchining uyiga boribdi.

*Tik, tik mekunam,
Tikmasang, mezanam.
Boshingni talqon qilaman,
Uyingni vayron qilaman, –*

debdi. Tikuvchi ayol usta ekan, bir chiroyli do‘ppi tikib beribdi. Do‘ppining tepasida barmoqdek keladigan so‘ppisi ham bor ekan. Chumchuq tepasida

so'ppisi bor chiroyli do'ppisini kiyib podshohning saroyiga borib ashula ayta boshlabdi:

*Mening do'ppim bor,
Poshshoning do'ppisi yo'q.
Mening so'ppim bor,
Poshshoning so'ppisi yo'q.*

Uning qo'shig'ini tinglagan podshoh darg'azab bo'libdi.

– Axir, men podshohi olam bo'lsam-u nega so'ppisi bor do'ppi tiktira olmas ekanman! – deb ovchisini chaqiribdi.

– Ot buni, yo'qot bu maqtanchoqni! – debdi. O'sha zamondagi miltiqlar og'zidan o'qlanar ekan. Ovchi miltiqni o'qlab, chumchuqning boshidagi so'ppisini mo'ljalga olib otgan ekan, qiziq, o'q teskari uchib podshohning yonboshiga kelib tegibdi. Chumchuq esa hamon ashulasini aytib yurgan emish:

*Mening do'ppim bor,
Poshshoning do'ppisi yo'q.
Mening so'ppim bor,
Poshshoning so'ppisi yo'q.*

Demak, biz har kuni ko'radigan boshida ingichka so'ppisi bor chumchuqlar o'sha zamonlardan beri yashab kelayotgan ekan.



ITDAN O'CH OLGAN BO'RI

Qadim-qadim zamonlarda odamlar o'rtasida bo'lgani kabi goho-goho itlar bilan bo'rilar o'rtasida ham g'alati-g'alati voqealar bo'lib turar ekan. Kunlarning birida daladagi qo'rg'onda yashab yurgan bir odam og'zidan o'q yeydigan miltig'iga ikkita o'qni joylab chiqibdi-da, huv naridagi ayvonchada oyoqlarini uzatib jimgina yotgan itini mo'ljalga olayotgan ekan, sigir sog'ib o'tirgan xotini:

– Hoy dadasi, nima qilayapsiz? – deb so'rabdi hovliqib.

– Iting qaridi, onasi. So'nggi paytlarda tuzukkina ovqat ham yeyolmaydi. Suyakni kemirishga ku holi yo'q, og'zida birorta tishi qolmagan. Bu holidagi qorovullikka ham yaramaydi. Endi otay, tinchgina narigi dunyoga ketsin, – debdi.

– Bekorlarni aytibsiz, – debdi xotini. – Qadrdonimni ottirgani qo'ymayman, kerak bo'lsa o'zim ovqat chaynab beraman, – debdi-da, eridagi miltiqni tortib olibdi.

– Bo'пти, bari bir bir kun paytini poylab otib tashlayman, – debdi-da, eri nari ketibdi. Beda g'arami ostida berkinib yotgan bo'ri bu gaplarning

hammasini eshitibdi. U it bilan do'stlashib qolgan ekan. Do'stiga achinibdi, uni o'limdan saqlab qolmoqchi bo'libdi. Eshitganlarini itga aytgan ekan, u xomush tortibdi.

– Qo'y, siqilma, men senga yordam beraman do'stim, – debdi itga bo'ri. – Yaqinda xo'jayiningning qo'yi qo'zilaydi, men qo'zichoqni olib qochaman, uydagilar dod-voy solishadi, sen orqamdan quvlab borib, men bilan olishib, qo'zichoqni qutqarasan. Ana shundan keyin er-u xotin sendan xursand bo'lib, boshingni silaydi, – deb tushuntiribdi. Xuddi shunday bo'libdi ham. Chorshanba kuni it yangigina tug'ilgan qo'zichoqni bo'rining og'zidan qutqarib qolibdi. Bo'rini esa oldiga solib quvlab yuboribdi. Er-u xotin ikkovlari bundan mamnun bo'lishibdi. Itlarining boshini silab-silab, go'shtning eng lahm joylaridan beradigan bo'lishibdi. Yotadigan joyiga yumshoq-yumshoq kigiz parchalar to'shab berishibdi. It uy egalarining bunday muruvvatidan xursand bo'lib osuda yashay boshlabdi. Shu zaylda kunlar o'tibdi. Bir kun bo'ri qadrdon do'stini yo'qlab kelibdi.

– Ey do'stim, qish qattiq keldi, bo'ron ustiga bo'ron, ov qilishning sira iloji yo'q. Bolalarim och, ular uchun qo'rangdan bir semiz qo'yni olib qochay, sen bilmagan bo'lgin, maylimi? – debdi. It xo'p debdi, ammo keyin o'ylanib qolibdi.

– Iya, – debdi o'ziga o'zi, – egalarim meni silab-siypalab boqib, parvarish qilishsa-yu, men ularga xiyonat qilaymi? Yo'q, yo'q, itlar zoti hech qachon egasiga xiyonat qilgan emas. Men ham

xiyonat qilmayman, – debdi o‘ziga o‘zi. Keyin bo‘ri bilan o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan kelishuvni xo‘jayiniga aytibdi. Xo‘jayini miltig‘ini o‘qlab, bo‘ri kelishini poylabdi. Bo‘ri kelibdi. Yoshgina, semizgina bir qo‘yni bo‘g‘izlab, endi yelkasiga olayotgan ekan, varanglagan o‘q ovozi eshitilibdi. Yo‘q, bo‘ri o‘lmabdi, o‘q orqa oyog‘iga tegib yarador bo‘libdi. Shu holida oqsoqlanib-oqsoqlanib qochibdi. Qochib borar ekan, ko‘nglidan: «Yo‘q, xiyonatni kechirmayman, hali buning uchun o‘ch olaman!» – degan fikr o‘tibdi. Bir kun bo‘ri payt poylab kelib, itni bo‘g‘ib o‘ldiribdi... O‘sha kundan boshlab itlar bilan bo‘rilar o‘rtasidagi do‘stlik buzilibdi. Bo‘rilar payt poylab itlarni o‘ldirishga harakat qilar ekan. Shundan odamlar: «It itligini, bo‘ri bo‘riligini qilar ekan-da, baribir» – deyishadigan bo‘lishibdi.



OTANI O'LIMDAN SAQLAGAN O'G'IL

Bobolarning hayoti o'g'illarga maktab bo'lar-mish, o'g'illarning hayoti navbatdagilarga hikmat bo'larmish. Hikmati ko'p xalqning fikrlashi, rivoyati, afsonalari ko'p bo'lar ekan. Ana shu voqealar og'izdan-og'izga o'tib, goh u yerda, goh bu yerda paydo bo'lib qolar ekan. Eshitgan rivoyatlarimdan birini aytay.

Keksayib qolgan otaga kelini kun bermay qo'yibdi. Vaysagani vaysagan, jerkigani jerkigan ekan.

– Ota bo'lib qo'lga bolta olib o'tin yorolmasa, qo'shni hovuzdan bir chelak suv keltira olmasa, hammadan ko'p ovqatni shu yesa, choyni achchiq-achchiq damla deb buyurib tursa... Jonimga tegdi hammasi! Dod deyman, voy-dod deyman! Meni bundan qutqaring! Yo meni, yo shu sassiq cholni tanlang! – deb eriga hech kun bermay qo'yibdi. Notavon er xotini to'rt bolani tashlab uydan ketib qolishidan qo'rqibdi-da, bir reja qilibdi. Otasi uxlab yotganida xotini katta bir qop olib kelibdi va avaylab keksa cholni unga solib, qopning og'zini mahkam bog'lab, ko'chaga chiqib ketibdi. O'g'il qayerga borayotganini o'zi ham bilmas, karaxt ahvolda ekan.

Qishloqdan chiqaverishda katta bir xarsang bo'lar ekan. O'shanga o'tirib, ozgina dam olmoqchi bo'libdi. O'tirishi bilan qopning ichidan qiqirlab-qiqirlab kula-yotgan ovoz eshitilibdi. O'g'il qo'rqib ketibdi. O'rni-dan sakrab turibdi.

– Qo'rqma o'g'lim, bu men – otangman, – debdi chol.

– Ota, nega bunday kulyapsiz? – debdi o'g'il.

– Qiqirlab kulishimning sababi shuki, bundan ellik yilcha oldin men ham xotinimning gapiga kirib otamni qopga soldim-da, cho'l-u biyobonga tashlab keldim. Yo'lda charchab biroz dam olish uchun xuddi mana shu xarsang ustiga o'tirgan edim. O'sha voqea yodimga tushib, ham kulayapman, ham yig'layapman, – debdi.

Yigit: «Dod», – deb yuboribdi. Dodlaganda ham chakana emas, yer-u ko'kni larzaga keltirgudek bir ovoz bilan dodlabdi. Atrofdagi daraxtlar silkinibdi, qushlar uchib ketibdi. Keyin tish-tirnog'i bilan yopishib qopning og'zini yechibdi, otani bag'riga bosib, yelkasida ko'tarib, yig'lab-yig'lab, uyiga qaytibdi. Keta turib bir necha kun avval qo'shnisidan eshitgan bir voqeani eslabdi. U bu voqeani ertak qilib aytib bergan ekan. Ana shu voqeani eslab-eslab yig'lab boraveribdi.

...Qadim-qadim zamonda bir podshoh o'z xalqining ro'yxatini olar, ro'yxatni olish uchun noiblarini jo'natar, noiblar qaytgach, hisobini ham so'rar ekan.

– Ro'yxat oldingmi? Anig'ini ayt, erkak ko'p-mi, ayol ko'p-mi? Men buni bilishim kerak, – derkan.

– Shohanshohim, – deb gap boshlabdi noib. – Xotinining gapiga kirib yashaydigan erkaklarni xotin deb hisoblasak, demak, mamlakatda xotin ko'payib borayotgan ekan, – debdi. Shoh darg'azab bo'libdi. «Xotinining gapiga kirib xotinchalish bo'layotgan erkaklarni aniqlab, besh darradan uring», – deb farmon beribdi.



MUNDARIJA

DARAXTLAR NEGA QURIYDI?.....	3
QARI BILGANNI PARI BILMAS.....	6
FAROSATLI BOLA.....	10
NIHOL EKKAN CHOL.....	15
XO'ROZ NEGA QICHQIRADI?.....	19
SABZILAR TILGA KIRIB, PIYOZLAR YIG'LAGANI.....	22
XIYONATCHINI BO'RI YERKAN.....	26
BUVISIGA SHIFO AXTARGAN YIGIT.....	30
O'G'RINI FOSH QILGAN PODSHOH.....	36
CHAQIMCHI-YU G'IYBATCHINI YER YUTAR EKAN.....	41
BUVIJONINING QOSHIGA O'SMA QO'YGAN QIZALOQ.....	46
QAROVSIZ OTA.....	51
SINCHKOV CHO'PONGA KATTA MUKOFOT.....	54
MUZEYGA KELGAN XO'TIKCHA.....	57
NOVVOS KO'TARGAN BOLA.....	60
AYIQ POLVONNING ARAZLAB KETGANI.....	63
QO'SHNI TOVOQNING XOSIYATI.....	67
AQLLI BOLA.....	70
BUYUK BOBOMIZNING BUYUK HIMMATLARI..	73
GOVMISH SIGIRNING ALAMI.....	76
CHIGIT OPPOQ PAXTA BO'LGANI.....	80
ITDAN O'CH OLGAN BO'RI.....	85
OTANI O'LIMDAN SAQLAGAN O'G'IL.....	88

Adabiy-badiiy nashr

Xudoyberdi TO‘XTABOYEV

**DONISHMAND BOBO
ERTAKLARI**

BIRINCHI QISM

Ikkinchi nashr



Muharrir Dildora ABDURAIMOVA
Badiiy muharrir Maftuna VAXXOBOVA
Texnik muharrir Yelena TOLOCHKO
Musahhah Dildora ABDURAIMOVA
Matn teruvchi Gulchehra AZIZOVA

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2019-yil 15-mayda ruxsat etildi. Bichimi 60×84¹/₁₆. Ofset qog‘ozi. School garniturası. Shartlı bosma tabog‘ı 5,35. Nashr tabog‘ı 3,55. Adadi 10000 nusxa. Shartnoma № 61–2019. Buyurtma № 19-356.

Original maket Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida tayyorlandi. 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: +998-71244-10-45. Faks: +998-71244-58-55.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

8000



**Cho'lpon nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi**

